

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYXON BERUNIY nomidagi  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ELEKTRONIKA VA AVTOMATIKA FAKULTETI  
ELEKTRONIKA VA MIKROELEKTRONIKA KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida  
UDK 621.315

**SATTOROV ABDUJALOL ABDUHAMIDOVICH**

**MAVZU: KO'P FUNKSIONALLI DATCHIKLARNI OLISH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNING  
XOSSALARINI TADQIQ QILISH**

**5A310800 – “ELEKTRONIKA VA ELECTRON TEXNIKASI”**

(sanoat elektronikasi)

**Magistr akademik darajasini olish uchun**

**yozilgan dissertatsiya**

**KAFEDRA UDIRI:**

**prof. ILIYEV.X.M**

**IILMIY RAXBAR:**

**dots. AYUPOV. K.S**

**Toshkent 2016**

## MUNDARIJA

KIRISH	4
I. BOB ADABIYOTLAR TAXLILI	9
1.1 Nanoelektronika asoslari	9
1.2 Uglerodli nanostrukturalar	12
1.3 Uglerod nanostruktur asining mexanik xossasi	17
II. BOB NANOMATERILLARNING QO’LLANILISHI	19
2.1 kimyoviy va biokimyoviy sensorlar	19
2.2. Xisoblash tizimlari	19
2.3 Uglerodli nanotrubkadan elektron emissiyasi asosidagi asboblar	20
2.4 Nanoelektronika bugun va ertaga	21
2.5 Dunyo 2025 yilda: 9 yil oldinga qadam	25
2.6 Nanoelektromexanik sistemalar	29
I I I. BOB NAZARIY QISM. NANOSTRUKTURALAR VA ULARNING TURLARI, QO’LLANISHI.	34
3.1. Geteroo’tishlar tushunchasi	34
3.2. Geteroo’tishlarning znergetik diagrammasi	35
3.3. YArim o’tkazgichli materiallar asosidagi geterojuftliklar	36
3.4 Datchik tushunchasi, uning turlari va tavsifi	38
3.5 Datchik chiqish signallarining fizik tabiatи	41
IV BOB NANOMATERALLARNI TADQIQ QILISH VA OLISH TEKNOLOGIYASI, QURILMALARI	47
4.1 Atom kuch mikroskopiyasi (AKM)	47
4.2 Skanlovchi atom kuch mikroskopining ishslash prinsipi	50
4.3. Gaz fazasida nanozarralarni olish usuli. “Bug ‘ <del>latish</del> tensatsiya” jarayonida nanozarralarni olish	56
4.4 Ko‘p funksionalli datchiklarni olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning xossalariini tadqiq qilish	62
4.4.1 Sirtiga ishlov berish texnologiyasi	
4.4.2 Sirt elektro’tkazuvchanlikni aniqlash usuli	67

4.4.3 Kremniyda marganes kirishmalarining elektr maydon va harorat ta'sirida ko'chishi	72
XULOSA	81
Adabiyotlar	83

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda nanotexnologiya jadal rivojlanmoqda. Ushbu yo‘nalishda yaratilgan ilmiy ixtiolar iqtisodiyot, tibbiyat, biologiya, ekologiya, aviatsiya, radioelektronika kabi ko‘plab muhim sohalarda yuqori samaradorlik va tejamkorlikka erishish imkonini bermoqda.

Mamlakatimizda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor, intellektual salohiyatning qo‘llab-quvvatlanishi samarasida ilm-fanning ushbu zamonaviy yo‘nalishi ham izchil taraqqiy etmoqda.

Yarimo‘tkazgich materiallarning kiristall panjasida kirishma atomlarining konsentratsiyasi va strukturasi boshqariladigan nanoklasterlarini shakillantirish, nanoo‘lchamdagи sturkturalarni olishda tubdan yangi yondashuv xisoblanadi. Nanoo‘lcham strukturalarni elektronika sanoatidagi mavjud qimmat qurilmalarda, texnologik jarayonlarning murakkab bosqichlarida oliqdan farqli, kirishma atomlarining nanoklasterlarini past xaroratlari diffuzion usulidan foydalanim shakillantirishning ma’lum afzalliklari mavjud. Bularga, yarim o‘tkazgich kiristalining butun hajmi bo‘yicha teng taqsimlangan nanoo‘lcham strukturalarni xosil qilish, ularning o‘lchami va strukturasini boshqarib hamda magnitli va ko‘p zaryadli nanoklasterlarni olish imkoniyatlarini misol qilish mumkin.

Yarim o‘tkazgichlar fizikasida, yarimo‘tkazgich materallarida nanoklasterlarning shakillanish xolatlari va bu materiallarning elektrofizik xususiyatlari shu kungacha deyarli o‘rganilmagan. Yarimo‘tkazgich materiallarning kiristal panjarasida magnit xususiyatli va ko‘p zaryadli nanoklasterlarning shakillanish texnologiyasini yaratish va ularning elektrofizik xususiyatlarini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, xozirgacha fanda noma’lum bo‘lgan fizik hususiyatlarni va elektronikada qo‘llashdagi yangi qirralarni ochishga imkon beradi.

Dissertatsiya ishi mazkur murakkab ilmiy-texnik vazifani yechishga bag‘ishlangan.

Yarimo'tkazgich materiallarning kristall panjarasida magnit momentli kirishma atomlarining, turli zaryad xolatidagi nanoklasterlarni shakillantirish va kirishma atomlarining holatini boshqarish yangi texnologik va termodinamik yondashuvni talab etadi. Ko'p zaryadli va magnit xususiyatlari nanoklasterlarni yarim o'tkazgich materiallarida olish, bu yangi ilmiy yo'naliш hisoblanib, bunday materiallarni elektronika sanoatida amaliy foydalanishda ham katta imkoniyatlarni ochib beradi. Hozirgi vaqtida sanoat, fan yoki ishlab chiqarishning elektron asboblar qo'llanilmaydigan qandaydir bir sohasini topish mushkuldir. Shuning bilan birga ushbu sohalarning yanada rivojlanishi elektron asboblar hissasining ortishi bilan chambarchas bog'liqdir. Elektron asboblarning biror sohada samarali qo'llanilishi va ulardan foydalanish ushbu asboblarning ishlash tamoyillarini, asosiy ko'rsatkichlari va tavsifnomalarini, shuningdek tayyorlash usullarini bilmasdan mumkin emas. Har bir ushbu bo'limlar bo'yicha fizikaning mos fanlari mavjud: yarim o'tkazgichlar va yarim o'tkazgich materiallar fizikasi, yarim o'tkazgich asboblar fizikasi, integral mikrotuzilmalar, mikroelektronika, yarim o'tkazgich tuzilmalar texnikasi va boshqalar. zamonaviy qattiq jismli elektron asboblarning asosi o'ziga xos xususiyatlarga ega yarim o'tkazgich materialdir. Kremniyda marganets atomlarining past haroratlari gaz xolatidan legirlashning diffuzion texnologiyasini yaratish hamda kremniy panjarasida marganets atomlari nanoklasterlarining shakillanishidagi qulay (maqbul) termodinamik shart-sharoitlarni aniqlash eng dolzarb muammolardan biridir.

Bugungi kun muhandislari zamonaviy texnologiya va texnikadan foydalanishga, texnologik jarayonlar avtomatik boshqaruvini joriy etishga, jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirishga xizmat qilishlari kerak. Ular oldida fan-texnikaning eng so'ngi yutuqlarini ishlab chiqarishga olib kirishdek ma'suliyatli vazifa turibdi. Elektronika sohasining mutaxassislari ham bundan mustasno emas.

Hozirgi kunda texnika sohasida o'lchashga doir axboratni uzatish, o'zgartirish, ishlov berish va saqlash uchun qulay bo'lgan, ammo kuzatuvchi

bevosita idrok qilish mumkin bo‘lmaydigan shakildagi signalni ishlab chiquvchi o‘lhash vositasi o‘lhash o‘zgartkichi deb yuritiladi. Inson o‘zining sezgi orgonlari bilan o‘lhash o‘zgartkichi signallarni qabul qila olmaydi. O‘lhash o‘zgartkichlari o‘lhash asboblarining, turli o‘lhash tizimlarining, biror jarayonlarni avtomatik nazorat qilish yoki boshqarish tizimlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘lchanayotgan kattalik berilgan o‘lhash o‘zgartkichi birlamchi o‘zgartkich (datchik)lardan foydalanish, ularni takomillashtirish jadal suratlar bilan rivojlanmoqda. Jumladan haroratlarni termodatchiklar yordamida o‘lhash ko‘plab sohalarda: texnik yo‘nalishlarda, ishlab chiqarishda, ilmiy tekshirish institutlarida keng miqyosda foydalanib kelinmoqda.

Termodatchiklarning parametirlarini va ishlash tezligini tadqiq qiluvchi qurilmalarni takomillashtirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi . Chunki haroratni aniqlikda o‘lhash, o‘lhash mobaynida o‘lhash aniqligining yuqoriligi termodatchikning holatiga bogliq.

Hozirgi kunga kelib bu yo‘nalishda ko‘plab yangiliklar qilinmoqda, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, inson ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaratilayotgan kashfiyotlar sonining ko‘payishiga asos bo‘lmoda.

**Tadqiqot maqsadi.** Hozirgi kunda mazkur muammoni yangi texnologiyada muvaffaqiyatli hal qilinishi konsentrasiyasi boshqariladigan turli xil tabiatli va turli xil tarkibli nanoo‘lchamli strukturalar – nanoklasterlarni shakllantirishga hamda fotonika, spintronika va nanoelektronika sohalari uchun yangi avlod materiallari olinishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Ishda namunalarni qalinligi va kirishma atomlarini qayta taqsimlanishi (raspad) bo‘yicha harorat gradiyenti shakllanishini imkonini beruvchi dastlabki qurilma tajriba sinovdan o’tkaziladi. Berilgan parametr bo‘yicha harorat gradiyentini boshqarish sistemasini ishlab chiqiladi. Bunday qurilmalarda qayta legirlash usulini ishlab chiqiladi. Qurilmaning texnologik imkoniyatlarini aniqlanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi.** Ishdagi muammo yechimini muvaffaqiyatli hal qilinishi har xil kirishmalarning yarim o’tkazgichli

materiallarda yuqori konsentrasiyali, ko'p atomli va binar nanoo'lchamli strukturalar hosil qilinishining yangi usullarini ishlab chiqish hamda bunday materiallarni funksional imkoniyatlarini kengaytirish va ulardan zamonaviy mikro va nanoelektronikada qo'llash imkoniyatini beradi. Ishning natijasi sifatida asosiy xossalari boshqariladigan yarim o'tkazgich materiallar yangi avlodini hosil qilishning texnik yechimi ko'rsatib beriladi.

Dissertatsiyani bajarish jarayonida quyidagi ilmiy natijalar olindi:

– Tajriba qurilmasining proyekti ishlab chiqildi va kirishma atomlarining qaytadan taqsimotini (raspad) namuna qalinligi bo'yicha harorat gradiyenti orqali boshqarish imkoniyatini beruvchi qurilma maketi ishlab chiqildi.

-Tajriba qurilmasi yaratildi va konstruksiyasi ishlab chiqildi. Kirishma atomlarining qaytadan taqsimotini (raspad) namuna qalinligi bo'yicha harorat gradiyenti orqali boshqarish imkoniyatini beruvchi qurilma yig'ildi.

- Kirishma atomlarining qaytadan taqsimotini boshqaruvchi qurilma yaratildi va asosiy xossalari boshqariladigan yarim o'tkazgich materiallar yangi avlodini hosil qilishning texnik yechimi ko'rsatib berildi.

-Yangi qurilma asosida olingan nanomaterialning ko'p funksiyali datchik sifatida ishlatish mumkinligi ko'rsatib berildi.tajriba sinovlari o'tkazildi.

**Tadqiqotning natijalari.** Amaliy ahamiyati namunalarni qalinligi va kirishma atomlarini diffuziyasi bo'yicha harorat gradiyenti shakllanishini imkonini beruvchi dastlabki qurilmani loyihalash va yaratish. Berilgan parametr bo'yicha harorat gradiyentini boshqarish sistemasini ishlab chiqish. Bunday qurilmalarda legirlash usulini ishlab chiqish. Qurilmaning texnologik imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqot natijalarining nazariy Boshqa metodlardin farqli juda arzon kam xarijat asosida konsentrasiyasi boshqariladigan turli xil tabiatli va turli xil tarkibli nanoo'lchamli strukturalar – nanoklasterlarni shakllantirishga hamda fotonika, spintronika va nanoelektronika sohalari uchun yangi avlod materiallari olinishiga olib keladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015 yil "6" martdagি № 84-son buyrug'iiga muvofiq tuzilgan A-3-73 Yarim o'tkazgichli materiallarda klasterli kirishma atomlarini taqsimoti va konsentrasiyasini boshqarish qurilmasini yaratish va ishga tushirish amaliy tadqiqotlari ilmiy loyihasi asosida bajarilgan.

Tadqiqot natijalari va ishlanmalari TDTUning "Elektronika va mikroelektronika" kafedrasida "Nanoelektronika", "Sirt fizikasi va nanolchamli strukturalar texnologiyasi asoslari", "nano va mikpoelektronika" fanlari bo'yicha labaratoriya va amaliy mashg'ulotlarida foydalaniishi mumkin.

**Ishning aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari TDTUning "Elektronika va mikroelektronika" kafedrasining uslubiy ishlarida ma'ruza qilingan (2014-2016 y.). TDTU «Rol intellektualnoy molodeji v razvitii nauki i texniki» konferensiyasida, Texnika yulduzlari jurnalida muohama qilingan.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsyaning ilmiy va amaliy natijari 5 ilmiy ishlarda aks ettirilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, \_\_ta ilovadan hamda \_\_ ta matn betidan tashkil topgan, \_\_ ta rasm va \_\_ ta jadvaldan iborat.

## I.BOB

### 1.1 NANOELEKTRONIKA ASOSLARI

Ko'pchilikka ma'lum 20-30 yil ilgari bitta kompyuter bir xonaga sig

~~shas Edizi~~ Keşap o' tmay

cho

'ntagimiz

bo

~~star~~ soatimizga

chiqarilsa ham ajablanmasak bo

~~adi~~ Znotexnalogiya yana shunday

imkoniyatlarga yo

~~Technology~~ Xato tush

maqsadi, faqat "mitti" lashtirishdan iborat emas. Texnikada biror vazifani bajarish uchun material, energiya va vaqt sarfi katta ahamiyatga ega.

Nanotarmoqdag'i miniaturlashtirishga intilish ham qulaylikdan tashqari ana shu unsurni tejash maqsadida yuzaga kelmoqda.

So

~~engoyilladagi~~ yashqotlar nat

uchun moddaning nafaqat sirt qatlami, hatto bir necha atom qatlaming o'zi yetarli bo

~~l[ib]~~, qolgan hajm esa ortiqcha material sarfi ekanligi ma

'lum

bo

~~adioqBundan~~ tashqari jis

uchun, yupqa va o

~~ta yubqa qatlajinkurllik~~ nalar vaqt

imkoniyatini beradi. Shuningdek bitta yoki bir necha atom qatlamlaridan tashkil

topgan nanotuzilmalarda fizik va kimyoviy jarayonlarning o

'zgacha tu

ilm sohasida yangi nanofanlarni keltirib chiqaryapti. Kvant nazariyasi, sirt

fizikasi va kimyosi, kristallografiya, molekulyar biologiya, biokimyo

nanofanlarning asosini tashkil qiladi.

So'nggi yillarda tez sur'atlar bilan tekshirilayotgan yangi ob'ektlar orasida hamidan ko'proq [2-7] nanozarralar esga olinmoqda.  $10^{-9}$  ni bildiruvchi "nano" qo'shimchasi borgan sari ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanila boshlandi. Nanokimyo va nanotexnologiya to'g'risida gapirishdan avval nanozarra nima ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lish zaruriyat tug'ildi.

Nanometr – metrning milliarddan bir qismidir. "Nano" so'zi qadimgi gretsiyadan kelgan bo'lib, gnom, karlik ma'nolarini bildiradi. Lotinchada "nano" o'ta kichik ma'noni bildiradi. Bir nanometr- bu juda kichik o'lcham

bo‘lib, qurollanmagan ko‘z bilan uni ko‘rib bo‘lmaydi. Taqqoslash uchun shuni aytish kerakki, odam sochi tolasi sekundiga 10 nm tezlik bilan o‘sar ekan. Soch tolasining qalnligi esa  $\sim 10^4$  nm ni tashkil etadi.

Nanoo‘lchamli masshtab eng kichik o‘lchamli ob’ektlarni, masalan, atom va molekulalarni xarakterlash uchun qo‘llaniladi. Kremniy atomi o‘lchami 0,24 nm, fulleren S<sub>60</sub> (60 ta uglerod atomidan tuzilgan “futbol koptogi”) ning o‘lchami 0,75 nm. Nanodunyo vakili bo‘lib yana bir necha yuz atomni o‘zida mujassamlashtirgan nanoklasterlar, o‘lchamlari bir necha o‘n nanometrdan katta bo‘ligan nanostrukturalar kiradi.

Nanoo‘lchamli masshtab eng kichik ob’ektlar, masalan, atomlar va molekulalarni xarakterlash uchun qo‘llaniladi. Kremniy atomining o‘lchami 0,24 nm. Nanometr yorug‘lik to‘lqin uzunligini o‘lchov birligidir. Masalan, ko‘zga ko‘rinuvchi nur to‘lqin uzunligi 400 dan 700 nmgachadir. Yana nanometrlarda mikroorganizmlar o‘lchamlari, to‘qimalar va ularning qismlari, biomolekulalar o‘lchanadi.

Materiallar- bular predmetlar, moddalar, nimadir ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xom ashyodir. SHunga muvofiq nanomateriallar, bular struktura elementlari o‘lchami “nanodiapazon” da yotuvchi ixtiyoriy ob’ektlar, moddalar yoki ularning kompozitsiyalaridir. Demak nanomateriallar – inson uchun foydali bo‘lgan narsalarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan moddalarning keng sinfini birlashtiruvchi yig‘uvchi termindir.

Nanomateriallar bir nechta asosiy tuzilishlari bilan boshqa materiallardan farqlanadilar:

Birinchidan, hamma nanomateriallar ko‘zga ko‘rinmaydigan juda kichik qismlardan iboratdir. Bundan superminiatyrizatsiya imkoniyati kelib chiqadi, ya’ni birlik yuzada funksional nanoqurilmalarning ko‘pini joylashtirish mumkinki bu nanoelektronikada yoki informatsiyani o‘tazich magnit yozuvini yaratish uchun muhim rol o‘ynaydi. Bunda 1 kvadrat santimetrga 10 Terabit informatsiya kiritish mumkin. Bunday nanomateriallar, ya’ni nanoqurilmalarni

inson tanasining joylashtirilishi qiyin bo‘lgan qismlariga oson joylashtirish mumkin.

Ikkinchidan, nanomateriallar yuzaning katta nisbiy maydoniga ega bo‘lib, bu uni u joylashgan muxit bilan o‘zaro ta’sirini tezlashtiradi. Masalan, katalitik aktiv materiallar kimyoviy va biologik reaksiyalarni o‘n, yuz va hattoki, ming, million marotaba tezlashtiradi. Yana dioksid titan nanozarrasi ishtirokida suvning vodorod va kislородга ajralib ketishini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin.

Uchinchidan, nanomateriallar ularda moddalar “nanoo‘lchamli” xolatda joylashganligi bilan buyukdir. Asosiy xarakteristikalarining o‘zgarishi ular o‘lchamining kichikligidagina emas, ularda kvantovo mexanik effektlarning xosil bo‘lishida hamdir. Nanozarralarning xarakterli xususiyatlaridan biri – ularda strukturaviy nuqsonlarning yo‘qligidir. Induvidual uglerod nanotrubkalar eng yaxshi po‘lat mustahkamligidan ham o‘n marotaba ortiq bo‘lgan mustahkamlikka egadir. Bu bilan ular nisbiy og‘irlilik tomonidan ham po‘latdan kqp marotaba engildir. Bundan ko‘rinib turibdiki, nanomaterialning grami oddiy moddaning tonnasidan ham samaraliroqdir. “Nanozarra” yoki “nanoo‘lchamli zarra” termini ilmiy leksikonga 20 yillar oldin kirib keldi, ammo nanoo‘lchamlilik kriteriysi hozirgacha ko‘pgina ilmiy diskussiyalarning predmeti bo‘lib kelmoqda. Keyingi yillarda nanozarralarni aniqlashda ularning o‘lchamlariga emas, ularda hajmiy faza xossalardan farqli yangi xossalarning namoyon bo‘lishiga e’tibor berish kerak.


Nanozarralar ikki turga bo‘linadi: nanoklasterlar yoki nanokristallar va xususan nanozarralar [8-12]. Birinchi turga mingtagacha atomni o‘zida mujassamlashtirgan, o‘lchamlari 1-5 nm bo‘lgan tartibli tuzilishga ega bo‘lgan zarralar kiradi. Ikkinci turga- o‘lchamlari 5-100 nm,  $10^3$ - $10^8$  atomdan tuzilgan nanozarralar kiradi. Agar nanozarra murakkab forma va tuzilishga ega bo‘lsa, u holda xarakteristik jixati sifatida zarrachaning chizig‘iy o‘lchami butunicha emas, uning strukturaviy elementi o‘lchami qaraladi. Bunday zarrachalar

nanostrukturalar deb ataladi, ularning chiziqiy o‘lchami 100 nm dan ortishi mumkin.

## 1.2 UGLERODLI NANOSTRUKTURALAR


Uglerod D. U. Mendeleevning elementlarning davriy tizimida IV guruhining (C, Si, Ge, Sn, Pb) metall bo’lmagan kimyoviy elementadir. Shuning uchun uglerod 4 ta valent elektroniga egadir. U keng tarqalgan tirik tabiatning asosini tashkil qiladi. Biroq yer qarida uning miqdori atigi 0,19 % tashkil qiladi. “elementlardan hech birida uglerod kabi murakkablashishga qobiliyatি rivojlanmagan”. Bitta kimyoviy elementlarning atomlarini bir biri bilan turli fazoviy konfiguratsiyani hosil qilgan holda turli xil usul bilan bog’lanishi allotropiya deb ataladi.

Uglerod bunday xossaga egadir. Darhaqiqat uglerodda to’rtta allotropik modifikatsiya mavjuddir – olmoz (1.1, a – rasm), grafit (1.1,b – rasm), karbin fullerin. So’nggi yillarda uglerodning yangi ko’rinishlari aniqlandi: fullerinlar, uglerodli nanotrubka, grafen. Ularning o’ziga xos bo’lgan xossalari nanotexnologiya soxasida katta imkoniyatlarni oladi. Olmozda uglerod atomlarining barcha to’rtta valent elektronlari yuqori mustaxkamlikdagi kovalent bog’ni C-C xosil qiladi. Ularni uzish qiyindir. Shuning uchun ularda elektron o’tkazuvchanlik mavjud bo’lmaydi xamda u dielektriklarga kiradi. Xuddi shu sababga ko’ra olmoz mustaxkamlikka va yuqori erishish xaroratiga ( $3550^{\circ}\text{C}$ ) egadir.



**1.1-rasm. Olmoz ( a ), grafit ( b )**

Grafenli tekisliklar orasida Van – der – Vaals kuchlari tufayli yuzaga kelgan kuchsiz tortishish mavjuddir. Bu kuchlarning tabiatini atom elektron qobig'ini kulon maydoni o'zining elektronlari bilan ekranlangan qo'shni atomning musbat zaryadlangan yadrosi bilan o'zaro ta'sirlashishi bilan tushuntiriladi. Tekisliklar orasidagi kuchsiz o'zaro ta'sirlashuv ularning bir biriga nisbatan onson sirpanishiga olib keladi. Natijada ular grafitdan qatlama bo'lib ko'chishi mumkin. Uglerodning boshqa allotropiga shakl grafit bo'lib, xossasi bo'yicha olmozdan kuchli farq qiladi. Grafit – grafen deb nomlanuvchi onson qatlamlashuvchi tekislikdan iborat bo'lgan yumshoq qora moddadir. Grafen tekislik doirasida uglerod atomlari kuchli kovalent bog' bilan bog'langan bo'ladi. Bu bog'lar asosida to'rg'ri oltiburchak (1.2 – rasm) yotgan ikki o'lchamli geksogonal panjarasini xosil qiladi. Biroq olmozdan farqli ravishda bog'ni xosil qilishda faqat 3 ta elektron ishtirok etadi.



**1.2-rasm.** *Grafen modeli geksagonal panjarada.*

Atomning to'rtinchi elektroni bo'sh bo'ladi. Bu esa grafen tekisligining yaxshi elektr o'tkazuvchanlik ega bo'lishiga olib keladi (elektr qarshilik 0,0014 Om). Grafit uzoq vaqtlardan beri ma'lum bo'lsada, izolyatsiyalangan grafen tekisligini faqat 2004 yilda olishni va tadqiq etishni o'rGANIB olishdi.


Professor A. Geym fan doktori K. S. Novoselov (Rossiya, Chernogolovka) guruxi bilan birgalikda bitta uglerod atom qalinlikdagi materialni olishga muofaq bo'lishdi. Grafen deb nomlanuvchi bu material bir atom qalinlikdagi uglerod molekulاسining ikki o'lchamli yo'lakchasidir.

Grafen xossasi mutloqo ajoyib bo'lib chiqdi. Elektronlarning samarali massasi nolga intiladi. Shuning uchun bu elektron katta xarakatchanlikka ega

bo'ladi. Ularning xarakatchanligi zamonaviy mikroelektronika eng keng tarqalgan material bo'lgan kristall kremniydagi elektron va kovaklarning harakatchanligidan yuz martta katta bo'ladi [13].

Grafen juda kichik o'lchamlardagi (bir necha nanometr) tranzistor va boshqa yarimo'tkazgichli asboblarni yaratishga imkon beradi. Tranzistor o'lchamlarini kichiklashtirilishi uning xossalarni o'zgarishiga olib keladi. O'lchamlarni kichiklashtirilishi bilan kvant effektlar o'rni kuchayadigan nanoolamga o'tish yuz beradi. Elektronlar kanallar bo'y lab de Broyl to'lqini kabi xarakatlanadi. Bu esa to'qnashishlar miqdorini (sochilishlar) kamaytiradi. Mos ravishda elektronlar sochilishida mavjud bo'ladigan energiya yo'qotilishlar kamayganligi uchun tranzistor samaradorligi oshadi. Uglerodning uchunchi allotropik shakli XX asrning 60 yilda kashf qilingan karbindir. Karbin chiziqli struktura bo'lib, uglerod atomlari ikkitali bog' (=C=C) yoki navbatma-navbat bir va uchtali bog'lar bilan bog'langan bo'ladi. Shunday qilib, karbin strukturasi bir o'lchamlidir. Bu iplar katta mustahkamlikka va o'tkazuvchi xossaga ega bo'lgan uglerod tolani shakllantiradi. Karbin iplari aylanaga tutashadi.

1985 yilda ilgari noma'lum bo'lgan uglerod shakli – fullerenlar (1.3 – rasm) kashf qilindi. Fulleren uglerodning yangi allotropik shaklidir. Fullerenda uglerodning xar bir atomi boshqa atomlar bilan uchta mustaxkam bog' bilan bog'langandir.



**1.3-rasm. Fulleren modeli**

Bu grafen tekisligida xam mavjud bo'ladi. Biroq grafendan farqli ravishda fulleren to'g'ri olti va besh burchakdan tashkil topgan, bo'rtgan, berk yuzasini xosil qiladi. Ko'rinishi bo'yicha futbol to'pini eslatadi. Fulleren qurilayotgan

binolarda shunga o'xshash gumbaz yaratgan arxitektor B. Fulleren nomiga qo'yilgan. Fulleren shakli yetarlicha turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.


Bir vaqtning o'zida kvant kimyoviy xisoblar ularning qurilishi ma'lum bir qoidalarga bo'ysunishini ko'rsatadi. Uglerodning turg'un klasterlari poliedr ko'rinishiga ega bo'lib, ularda uglerodning xar bir atomi 3 koordinatsion songa ega bo'ladi. Faqat besh va olti sonli siklga ega bo'lgan korboliedrlar yanada turg'un bo'ladi. 60 ta atomdan tashkil topgan va  $C_{60}$  bilan belgilanadigan fulleren molekulalari eng ko'p tadqiq etilgan.  $C_{60}$  struktura 20 ta olti burchakdan va 12 ta besh burchakdan iboratdir. Har bir olti burchak 3 ta besh burchak va 3 ta olti burchak bilan chegaralansa, besh burchak faqat olti burchak bilan chegaralanadi. Bunday struktura  $C_{60}$  molekulaga noodatiy mustaxkamlikni ta'minlaydi. Berk xajmiy geometrik figurani qurishda besh burchakni mavjud bo'lishi majburiyidir. Aynan u grafit qatlaming bukilishini ta'minlaydi. C-C bog' uzunligi u qaysi chegarada joylashishiga bog'liq bo'ladi: olti burchak – olti burchak chegarasidagi C-C bog' uzunligi 0,139 nm ga teng bo'lsa, olti burchak – besh burchak chegarasidagi C-C bog' uzunligi 0,144 nm ga teng.

Yuqorida aytilganidek fulleren strukturasini xosil qilishda 3 ta elektron ishtirok etadi. To'rtinchi elektron bo'sh kimyoviy bog'da mavjud bo'ladi. Shuning uchun mazkur molekulalar muxim kimyoviy xossaga ega bo'ladi. Ular polimer strukturasini xosil qilishi mumkin, shuningdek vodorod (gidrirlangan fulleren), ftor (ftorlangan fulleren) va boshqa boshqa atomlarni qo'shib olishi mumkin.

Fulleren asosidagi qattiq materiallardan kuzatiladigan xodisalardan biri o'ta o'tkazuvchanlikdir. O'ta o'tkazish xolatiga o'tishning kritik xarorati yetarlicha yuqoridir. 1991 yilda qattiq  $C_{60}$  ni ko'p bo'limgan miqdorda ishqoriy metall legirlash metall o'tkazuvchanlikdagi materialni xosil qilishi aniqlandi. Bu material past xaroratlarda o'ta o'tkazuvchan xolatga o'tadi. Qattiq fullerit yarimo'tkazgichdir. U foto'o'tkazuvchi organik metallardan eng yaxshilaridan biridir. Ulardan tushayotgan yorug'lik chastotasini ikki marta va uch martta oshiruvchi optik o'zgartirgichlarni tayyorlash mumkin. Fullerenlar kashf

qilinganidan so'ng olimlar grafen tekisligi ma'lum sharoitlarda trubkaga o'ralishini aniqlashgan. Bu xosil bo'lishni uglerodli nanotrubkalar (UNT) deb nomlangan.

UNT – diametri birdan o'nلarcha nanometrga va uzunligi o'nلarcha mikron atrofida bo'lган ichi bo'sh cho'zinchoq silindir strukturadir (1.3–rasm). Mukammal nanotrubka silindргa o'ralgan grafen tekisligidir, uchlarida uglerod atomlari joylashgan to'g'ri olti burchak bilan terilgan sirt. Uglerodli nanotrubkalarning shakli xilma xildir. Ular bir devorli yoki ko'p devorli (bir qatlamli yoki ko'p qatlamli), to'gri yoki spiralli, uzun yoki kalta bo'lishi mukin. Nanotrubkalar cho'zilish va bukilishlarga mustaxkamdir. Katta mexanik kuchlanish ta'siri ostida ular yirtilmaydi, sinmaydi, faqatgina o'zining strukturasini qayta tashkil qiladi [14]. UNT amaliy foydalanishlar uchun muxim xossalarga egadir: ular juda katta zichlikdagi tokni o'tkazish qobiliyatiga ega, boshqa atom va molekulani qo'shganda (adsorbsiya) o'zining xossasini o'zgartiradi, past xaroratlarda o'zining uchki qismidan elektronlarni chiqaradi (sovuv elektron emmisiya). Shuning uchun butun duniyoda ularning xossalariни tadqiq etish jadalliklar bilan olib borilmoqda. Bu esa ularning amaliy qo'llanilish soxasini kengaytirmoqda. UNT 1.4–rasmida ko'rsatilganidek ochiq va berk bo'lishi mumkin. Oxirgi xolatda uning uchki qismlari yarimta fulleren bilan tugaydi. Shuning uchun fulleren va UNT gumbaz turuga yaqin strukturadir.



**1.4-rasm. UNT modeli.**

### **1.3 UGLEROD NANOSTRUKTURASINING MEXANIK XOSSASI**

Uglerod atomlari orasidagi kovalent bog' juda mustaxkamdir. Shuning uchun uglerod strukturasi asosidagi kvant iplar (karbin strukturalar va uglerodli nanotrubkalar) juda mustaxkamdir. Uglerod strukturasidan tayyorlangan tros yo'ldoshdan yerga tushirilishi va unda lift harakatlanishi mumkinligi hisoblab chiqilgan. Uglerod strukturasi yagona material bo'lib, u asosida tayyorlangan tros xususiy og'rilik ostida uzilib ketmaydi.

Birin-ketin qo'yilgan uglerod monoatomi qatlamanidan iborat bo'lган silindrni tasvirlaydigan ko'p devorli uglerodli nanotrubkalar muxim mexanik xossaga egadir. Ichki silindrlar tashqi silindrlarga nisbatan deyarli ishqalanmasdan xarakatlanishi mumkin. Teleskopik effekt to'laligicha tiklanuvchandir. Ichki trubkani chiqarish va kiritish mumkin va bu jarayonni ko'p marotaba takrorlash mumkin. Bunda teleskopik kuchlar amal qiladi. UNT xolatida ular bir nechta tashkil qiluvchilardan qo'shiladi: Van – der – Vaals kuch, ishqalanishning statik va dinamik kuchlari. Ishqalanish kuchlari juda kichikdir.

Ularning tajribaviy baxolashlar bir atomga 10-14 Nyuton atrofidagi kattalikni berdi, keltirilgan bo'lak ustida o'tkazilgan tajribalar ishqalanish kuchi vaqt davomida o'zgarmasdan qolishini ko'rsatdi.

Tasvirlan tajriba diametri birlarcha nanometr atrofidagi podshipniklarni yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari mexanik xossalar elektr xossalar bilan bog'langanligi aniqlangan.

Ichki silindrning tashqi silindrga nisbatan xarakatlanganda keltirilgan tizimning to'liq qarshiligi eksponensial qonuniyat bilan o'zgaradi:

$$R = R_0 \exp\left(\frac{x}{L_0}\right) \quad (1)$$

bu yerda  $L_0$  – trubka xossalari tufayli xosil bo'ladigan o'ziga xos uzunlik,

$R_0$  – Silindrlar bir biriga to'laligicha kiritilgan xolatdagi qarshilik,  $x$  – chiqarilgan trubka joylashuvining joriy koordinatasi.

Qarshilikni o'zgarishi xarakatlanish va tezlanishning juda sezgir datchiklarini tayyorlashga imkon beradi. Trubkaning xossasi bukilishda o'zgarishi aniqlangan. Bu esa deformatsiya datchiklarini tayyorlashga imkon beradi.

## II BOB

### NANOMATERILLARNING QO'LLANILISHI

#### 2.1 KIMYOVİY VA BİOKİMYOVİY SENSORLAR

Uglerod nanotrubkalar muxim xossaga – begona atom yoki molekulalar adsorbsiyalanganda o'zining o'tkazuvchanligini o'zgartirish qobiliyatiga egadir. Lengmyur adsorbsiya xodisasini tadqiq eta turub, adsorbsiyalangan atomlar soni ular atrof muxitda xosil qiladigan bosim bilan aniqlanishini o'rnatgan xolatlar tenglamasiga muvofiq  $p$  bosim fazodagi atomlar  $n$  konsentratsiyasi  $p=nkT$  bilan aniqlanadi. Shuning uchun nanotrubka o'tkazuvchanligini o'zgarishini nanotrubkani o'rab turuvchi fazoda kimyoviy moddalar konsentratsiyasini aniqlash uchun ishlatalishi mumkin.

Bu xossani nanotrubka sirtga maxsus ishlov berishni qo'llagan xolda kuchaytirish mumkin. So'ngi yillarda "uglerod nanotrubkasining kovalent kimyosi" degan yo'naliш paydo bo'ldi. Bu yo'naliш ma'lum bir moddalar konsentratsiyasini o'lchashda sezgirlikni oshiradigan radikallarni izlash va uni UNT ga qo'shishdan iboratdir. Bu yo'naliш nanotrubkaning o'zini shakllantirishda uglerod xar bir atomning 3 ta elektroni ishtirok etishi, to'rtinchi qo'shilayotgan molekula bilan kimyoviy bog' o'rnatish mumkinligiga tayanadi.

#### 2.2. HISOBBLASH TİZİMLARI

Zamonaviy hisoblash tizimlarining asosini maydonli tranzistordagi mantiqiy elementlar va xotira yacheyskalari tashkil qiladi. Zatvor izolyatsiyalangan maydonli tranzistor kanal o'tkazuvchanligi elektr maydon bilan boshqariladigan asbobdir. Bu maydon zatvor elektrodiga elektr kuchlanish uzatilganda hosil bo'ladi. Hozirgi kunda kanal vazifasini uglerodli nanotrubkalar bajaradigan tranzistorlar yaratilgan. Hozirgi kunda bu tranzistor o'zlarining parametrlari bo'yicha kremniy asosidagi maydonli tranzistorlardan ortda qoladi. Biroq olimlar ularni yaxshilashga umid qilishmoqda. Bunday texnika asosida birinchi integral sxemalar yaratildi, inson sochi fonida elektron mikroskopda olingan bunday sxemaning tasviri keltirilgan. Hozirgi kunda axborotlarni

saqlash texnologiyalarini tadqiq etish faol rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Bu yanada katta xajmdagi axborotni yanada kichik xajmdagi fazada saqlash talabidan kelib chiqmoqda.

Uglerodli nanotrubkalar xam ana'naviy kremniyli planar texnologiyasi xotira elementlarini xam yangi orginal elementlarini tayyorlashga imkon beradi. Misol tariqasida ko'p devorli uglerod nanotrubkasining mexanik xossasi asosidagi xotira elementlari yaratishni keltirish mumkin, xotira elementini yaratish uchun ko'p devorli trubkaning uchlari ochiladi, uning tashqi qobig'i ikkita elektrodlar orasida qotiriladi.

Elektr kuchlanishi – musbatiga chap yoki o'ng elektrod ulanishiga bog'liq ravishda trubkaning ichki qismi sirpanadi hamda shu elektrodga tortiladi. Shunday yo'l bilan xam oddiy ikki pozitsiyali xotira (0,1) xam uch pozitsiyali xotirani (0,1,2) yaratish mumkin.

## **2.3 UGLERODLI NANOTRUBKADAN ELEKTRON EMISSIYASI ASOSIDAGI ASBOBLAR**

Elektronlarning moddadan vakumga chiqish xodisasini elektron emissiya deb atashadi. Qattiq jismni  $1000^{\circ}\text{C}$  ortiq yuqori xaroratgacha qizdirishdan iborat bo'lgan termoelektron emissiyada elektronlar chiqish ishini yengib o'tish uchun yetarli bo'lgan energiyaga ega bo'lishadi xamda vakuumga chiqishi mumkin. Termoelektron emissiya asosida ko'p yillar davomida elektronikani rivojlanishini belgilab bergen elektron lampalarning katodlari tayyorlangan [15].

Kichik energiya sarfini sovuq emissiya talab qiladi. Unda elektronlar kuchli elektr maydon ta'sirida vakuumga chiqadi. Juda yuqori elektr kuchlanishini yaratish talab etilganligi uchun bu usul rivojlanmagan. Elektron trubalarni tadqiq etilishi vaziyatni o'zgartirishga imkon berdi. Bir devorli uglerodli nanotrubkaning radiusi  $0,7\text{ nm}$  tashkil qiladi. Bu esa bunday trubkaning uchida  $10^8\text{ V/sm}$  dan ortiq elektr maydonni xosil qilishga imkon beradi. Bunday maydonning energiyasi elektronni vakuumga chiqarish uchun yetarlidir. Shunday qilib, nanotrubkadan elektronlarning maydonli emissiyasi

samaradorligi ularning diametri kichikligi xamda nanotrubkalarning uchida elektr maydonning yuqori bo'lishi bilan asoslangandir.

Texnologik nuqtayi nazardan UNT parametrlarning turg'unligi xamda emissiya tok zichligi katta bo'lishi bilan yaxshidir. Displeylarda  $500 \text{ mA/sm}^2$  dan ortiq emissiya tok zichligi olingan. Emission xossalari bo'yicha yetakchi bir devorli trubkadir. Bu ularning diametri ko'p devorligiga qaraganda sezilarli darajada kichik bo'lishi, maydon kuchlanganligi o'tkirlilik radiusiga teskari proporsional o'sishi bilan bog'langandir [17]. Emissiya yorug'lik manbalarini, display ekranlarini yaratish uchun ishlataladi.

UNT asosida superkondensator, litiy batareyalari va boshqa asoboblarni yaratish bo'yicha jadal tadqiqotlar olib borilmoqda.

Olimlar UNT ning boshqa imkoniyatlarini tadqiq etishmoqda. Masalan, unglewrod trubkadan iborat bo'lgan matritsa bosh miyya jaroxatini tiklashga olib keladi.

## 2.4 NANOELEKTRONIKA BUGUN VA ERTAGA

Razer - sichqoncha, klaviatura va futbolchilar uchun boshqa atrof-muhit birliklari ishlab chiqaruvchi - "aqlii" bilaguzuk NABU kiritildi. Zamonaviy aksessuar Fitbit kuchlari yoki Nike Fuelband va Smart soat Pebble vazifalarini birlashtiradi. Bu nafaqat yoqib qadamlar va kaloriyalar soni o'lchaydir va SMS xabar uchun ularni olish, qo'ng'iroqlarni, va hokazo o'tkazib yuborilgan, iPhone /



**2.1-rasm. Aqilli bilak uzuk**

Android-smartfon bilan hamohang bo'ladi bilaguzuk, har ikki tomon ikki ekranli bilan jihozlangan. Bir jismoniy inson yutuqlarini oddiy ko'rsatkich, lekin bir katta LCD, masalan, bir tvit mos mumkin. uy-joy yomg'ir va loy chidamli

bo'ladi. kompaniyada va'da zaryadlovchi, 7 kun uchun etarli bo'lishi kerak. Ishlab chiquvchilar uchun Nabu model \$ 49 turadi. Relizlar (tasdiqlangan bo'lishi sana) davrida iste'molchilar uchun versiya "bir oz ko'proq" turadi, Razer dedi.



### **2.2-rasm. Samsung 85-dyuymli LCD TV**

Samsung 85-dyuymli ekranga diagonal va 4K qarori bilan LCD TV qayrilib hayron qoldirdi. Foydalanuvchi masofadan boshqarish pultidagi bir tugmani Koraxon, servo faoliyat va model 85U9B bir egri qiyofasini olish boshlanadi. Orqaga qaytish original, "yassi" shakliga TV tugmasini bosib. Shu "egiluvchan" televizion namoyishlari va LG haqida. Bu kichik (77 dyuym), lekin uning ekran OLED texnologiyasi bilan amalga oshiriladi.



### **2.3-rasm. Smart soat Pebble**

Smart soat Pebble ularga charm Tasmani va zanglamaydigan po'lat zanjir C qo'shib, mustahkam ko'rinishga berdi. Bundan tashqari, o'zgartirilgan aksessuar ulagichi (hozir 2-pin), LED zaryad darajasida paydo bo'ldi va yanada barqaror signal qabul Bluetooth uchun yangi antenna, "Operativ xotira" ikki baravar ko'paydi. A monoxrom display - - qurilmaning eng muhim element bir xil (1,26 dyuym, 144x168 ball) qoldi. Savdo Pebble Steel, narx yanvar oyida \$ 249.



#### **2.4-rasm. CEO Brian Krzhanicha chip**

Intel mobil qurilmalar, simsiz zaryadlash uchun bir "piyola" ko'rsatdi. Shakli ba'zan uyga keyin bir oz pul, kalitlari va uyali telefonni tarqalgan tangaga o'xshaydi. Har qanday asbob avtomatik ravishda idish ichiga tashlanib olina boshlash kompaniya g'oyasidir. CEO Brian Krzhanicha chip qaynatgichni ko'ra, "kubogi", "aqlli" Bluetooth-garnitura Jarvis faqat mos keladi, lekin oxir-oqibat u smartfonlar, planshetlar va hatto ultrabooks qo'llab-quvvatlaydi konteyner diametri taxminan 10 dyuym bor. bir-biriga tegib holda magnit rezonans texnologiyalar uchun ayblovlar.




#### **2.5-rasm. Kolibree - Bluetooth**

Kolibree - Bluetooth-quvvatlash bilan dunyodagi birinchi elektr tish cho'tkasi. Foydalanuvchilar Smartfon maxsus dastur yuklab, keyin simsiz ikki qurilmalar ulash. Brush qancha vaqt va qanday yaxshi, har bir tish va saqich tozalash odamlar eslasa, so'ngra telefoningizga bu statistika yuboradi. Kolibree yaratuvchilarni o'yin element unutib yo'q: application oila a'zolari tezlik va tozalash sifatini raqobat imkonini beruvchi, bir necha mo'yqalam mo'yqalamlar ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin. natijalari, shuningdek, do'stlari va ijtimoiy tarmoqlarda ham bir tish bilan birligida mumkin. Umumiyligi boshlang'ich past 200 100 dollar uchun firçalar bir necha modellari ozod qilish niyatida. Kickstater kampaniyasi muvaffaqiyatli bo'lsa, ular IV choragiga sotuvga bo'ladi.



## 2.6-rasm.

hamkorlar bir qator Valve "o'yin" OS Valve operatsion tizimi ishlatalayotgan CES 2014 video O'yin ko`rgazmalarini suv ostida. Ibuypower, CyberPowerPC, Origin shaxsiy kompyuter, Materiel.net, Webhallen, muqobil, Next, zotac va Scan Kompyuter texnikasi - bu kompaniyalar sifatida katta ishlab chiqaruvchi (Alienware, Falcon Northwest va Gigabyte) va kichik futbolchilar bor edi. Iqtisodiy eng qutilari 499 6000 dollar bo'ladi. Jami ko`rgazma 14 bo'lajak raqib Xbox va PlayStation taqdim etildi. eng qimmat tizimlari biri (up RAM, 16 GB, 6 tarabayt qattiq disk salohiyatini grafik NVIDIA GeForce GTX Titan,) Falcon taklif etamiz. Bu 1799-6000 dollarga sotiladi



## 2.7-rasm.

**Ivee Sleek** — Bu "aqlii" uyda boshqa element hisoblanadi. Shaxsiy yordamchisi siz unga ovozli buyruqlarni berib, Wi-Fi uchun uy-joy boshqarish imkonini beradi. U nafaqat kabi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar (masalan, "22 daraja harorat past"), va so'zlar tushunadi "Men issiq emasman." Qurilma 199 dollar uchun sotuvga allaqachon



## 2.8-rasm.

StriimLight WiFi va StriimLight B-10: AwoX kompaniya "aqlli" uyi uchun ikki Lampochka kiritildi. Ular simsiz tarmoq (Wi-Fi yoki Bluetooth) Ovozi qabul karnay yashiringan. Qurilmaning narxi hali e'lon qilinmaydi.



### **2.9-rasm.**

Startup Panono jonli qanday uning sharsimon kamera ko'rsatdi. O'zi ustidan uloqtirish, agar biz allaqachon aytib o'tganimizdek bo'lgan Eslatib o'tamiz, "fotomyach", 360-daraja panoramalar tortishish mumkin. Bir vaqtning o'zida parvoz eng yuqori nuqtada bir suratga olish, uy-joy birligi, ichiga qurilgan 36 kameralar (2 megapikselli)



### **2.10-rasm. LaCie sohasida - po'lat to'p shaklida qattiq disk, Chisofle dizayn byurosiga mo'ljallangan.**

Diskda hajmi - 1 TB, vazn - bir funt. Har bir qurilma Qopqog'i va Frantsiyada qo'lidan yig'ilgan. Kompyuter bilan u USB 3.0 interfeysi bilan bog'liq. Yangilik savdo \$ 490 bu oy o'tgach boshlanadi

## **2.5 DUNYO 2025-YILDA: 9 YIL OLDINGA QADAM**

Aviatsiya muhandisi, koinot sayyoohligi bo'yicha dunyodagi birinchi Space Adventures korxonasining ta'sischisi, Planetary Resources kompaniyasi asoschisi va boshqa etakchi texnologiyalar hamda kosmik rivojlanishlar bilan

bog‘liq loyihalar tashkilotchisi Piter Diamandis 2025 yilda insoniyatni nimalar kutayotganini bashorat qildi.

### **1. 1000 dollar evaziga inson miyasi**



**2.11-rasm. inson miyasi**

2025 yilda 1 soniyada 10 000 trln operatsiyalarni bajarishga qodir kompyuter paydo bo‘ladi. Bu tezlik inson miyasining axborot tahlil qilish tezligiga teng. Bunday qurilma bor yo‘g‘i 1000 dollar evaziga sotiladi.

### **2. “Barchaga internet”**

“Barchaga internet” global iqtisodiyotni yangi darajaga ko‘taradi: geografik chegaralar yo‘qolib, dunyoning turli burchaklaridagi insonlar onlayn tarzda loyihalar ustida xuddi real hayotdagi kabi ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. 2025 yilga kelib “Barchaga internet” axborot yig‘ish uchun 100 milliardlik bir-biriga ulangan datchiklarni o‘z ichiga oladi. “Cisco”ning yaqinda chop etilgan ma’ruzasiga ko‘ra, megainternet 19 trln. dollar ishlab chiqaradi.

### **3. Takomillashgan bilim**



**2.12-rasm.**

Dunyodagi trilliondan ortiq axborot yig‘ish datchiklari (avtonom avtomobil, sun’iy yo‘ldosh tizimi, uchuvchisiz samolyotlar, taqiladigan kameralar) orqali siz istagan vaqtingiz va joyingizda, o‘zingiz xohlagan

narsangiz haqida bilib olishingiz mumkin. Biz endi takomillashgan bilimlar dunyosi sari boryapmiz.

#### **4. Bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan 8 millard inson**



**2.13-rasm.**

Facebook (Internet.org), SpaceX, Google (Loon loyiha), Qualcomm va Virgin (OneWeb) sayyoramizdagi barcha insonlarni soniyasiga bir megabit tezlikdan oshuvchi internet bilan ta’minlab berishni rejalashtirgan. Sakkiz milliarddan oshiq insonlar kommunikatsiyaning yangi vositalari bilan bog‘lanadilar. Global tarmoqdan cheklangan insonlar Google, 3D-chop etish, Amazon xizmatlarining barcha ma’lumotlaridan foydalanish imkoniga ega bo‘lishadi.

#### **5. Sog‘liqni saqlashdagi katta burilish**




**2.14-rasm.**

Yangi samarador tizimlarning paydo bo‘lishi evaziga mavjud bo‘lgan sog‘liqni saqlash muassasalari yo‘qolish arafasida qoladi. Minglab startaplar, shuningdek bugungi kundagi axborot gigantlari (Google, Apple, Microsoft, SAP, IBM va h.k.) yangi biznes-modellar bilan daromadli (3,8 trln dollar) sog‘liqni saqlash sohasiga kirib kelishadi. Bu esa byurokratik klinikalar va shifoxonalarni yo‘q qiladi. Biometrik zondlash har bir kishining o‘z salomatligiga o‘zi egalik qilishiga yordam beradi. Yangi uskunalar orqali endilikda biz yurak xastaligi, saraton sabablari hamda neyrodegenerativ kasalliklarni aniqlashimiz va ularni davolashimiz mumkin. Robotlashtirilgan

jarrohlar esa mushkul operatsiyalarni amalga oshiradi va bu samaraliroq, hamyonbop bo‘ladi.

## **6. Kengaytirilgan va virtual reallik**



2.15-rasm.

Facebook (Oculus), Google (Magic Leap), Microsoft (Hololens), Sony, Qualcomm, HTC va boshqalarga kiritilgan milliardlab dollarlar endilikda behudaga sarflanmaydi. Display va interfeyslarning yangi avlodlari paydo bo‘ladi. Odatiy smartfon, kompyuter va telefon ekranlari yo‘qolib, ularning o‘rnini ko‘zoynaklar egallaydi. U Google Glass`ga o‘xshamaydigan, hozirda xipsterlar taquvchi ko‘zoynak kabi bo‘ladi.


## **7. Bolalik**



2.16-rasm.

Odamzod sun’iy intellekt yaratishda davom etadi. Agarda siz Siri (Siri)ni eng mukammal yutuqlardan biri deb o‘ylasangiz, 10 yildan keyin “Temir odam”dagi haqiqiy Jarvisni hayotda ham ko‘rishingiz mumkin bo‘ladi. IBM Watson, Deep Mind va Vicarious sizlarning so‘zlashuvningiz, xabaringiz va biometrik ma’lumotlaringizni ko‘chirib oluvchi kuchli yordamchini ishlab chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida ishlarni engillashtiradi.

## **8. Blokcheyn**



2.17-rasm.

Siz bitkoin - xavfsiz kriptovalyutasi haqida ma'lumotga egasiz. Lekin innovatsiya – elektron valyuta emas, balki vositachilarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri aktivlarni raqamli uzatishdan iborat bo‘lgan protokoldir, ya’ni - blokcheyn. Mark Andrisen kabi sarmoyadorlar uchun elektron valyutani kiritish internet yaratishdek muhim qadam hisoblanadi.


## 2.6 NANOELEKTROMEXANIK SISTEMALAR

Turli ko‘rinishdagi bir necha ming atomlardan tuzilgan nanokonstruktur bor deb faraz qilaylik. Uning yordamida nimani yig‘ish mumkin? Avtomobil yoki qishloqda uy qurish uchun esa, afsus, buncha miqdordagi atomlar soni etmaydi. Ammo, mumkin bo‘lgan turli shakldagi molekulalarni yig‘ish mumkin: halqasimon (masalan, benzol), cho‘zilgan (alkanlar), sferik (fullerenlar). Zerikarli, ayniqsa, avtomobilni xoxlagan bo‘lsang. Avtomobilni mumkin bo‘lgan disklardan, silindrlardan, porshenlardan va boshqa qismlardan yig‘iladi. Bular esa bizning konstruktorda yo‘q. O‘ylab qaralsa, barcha sanab o‘tilgan qismlar o‘rniga nima uchun unga mos molekulalarni qo‘llash mumkin emas, ulardan avtomobilalr yig‘ish mumkin emas? Endi ancha qiziqroq, to‘g‘ri emasmi? Ayniqsa bu avtomobil buzilib ketmaydimi, u yura oladimi va kimlarni olib yuradi? degan savollar berilmasa.

Hozirgi vaqtida texnikaning rivojlanishining umumiyligi tendensiyalaridan biri funksional qurilmalarni miniatyurizatsiya qilishdir. Bu tendensiya ochiq ko‘rinishda elektron komponentlar evolyusiyasi jarayonida namoyon bo‘ladi. Agar birinchi tranzistorlar ularni barmoqlar bilan olish mumkin bo‘lgan darajada katta bo‘lsa, zamonaviy kompyuterlar protsessori million maydon

nanotranzistorlaridan iboratligi xech kimni xayron qoldirmaydi. Elektron komponentalar izidan elektromexanik qurilmalar miniatyurizatsiyasi boshlandi. Bir turli mexanik qurilmalarning holati makro- va mikro dunyoda turlicha bo‘lishiga qaramay, olimlar va muxandislarning urinishlari hattoki bizning ishlab chiqarishda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan mikroelektromexanik sistemalar yaratishga undadi.

Biroq keyingi qadamni qo‘yishelektromatorlarni nanodunyoga o‘tkazishni amalga oshirish yanada qiyin ekan. Ob’ektlar o‘lchamini kamaytirganda ularning sirt yuzasining xajmga nisbati oshadi, bu nanosistemalar mexanik xolatida ishqalish kuchining xissasining oshishiga va ishqalish kuchining inersiya kuchi ustidan domenlanishiga olib keladi. Stol sirtida yotgan koptokka va krimniy monokristali sirtidagi fulleren molekulasiga aylanma harakat berilgandan keyin inersiyani o‘chirish uchun sarflangan vaqt bir necha tartibga farq qiladi. Biroq, nanoelektronlarning mexanik xolatlarini nazariy ifoda etish mumkin bo‘lsa-da, asosiy savol tug‘iladi-ularqanday tayyorlanadi? Hozirgi kunda NEMS larni chratishning ikkita asosiy tendensiyasini ajratib ko‘rsatish mumkin: mavjud mikroelektromexanik sistemalar o‘lchamini kichraytirish va yangi molekulyar dvigatellar, hamda molekulyar elektromexanik qurilmalarni yaratish.




**2.18-rasm. Molekulyar reduktor**

Birinchi yondashuv ma’lum qiyinchiliklar bilan bog‘langan, NEMS ni yaratishda qo‘llaniladigan usullar (elektron litografiya, elektron edirish va b.sh.) chegaralangan ajrata olish qobiliyatiga egaligidan ulardan nanoob’ektlar yaratishda foydalanish muammolarni yuzaga keltiradi.

Nanoelektromotorlarning o‘lchamlari shunchalik kichik-ki, ular konstruksiyasida ayrim molekulalar va funksional gruppalarini qo‘llash mumkin(1-rasm).

Xususan, bir nanotrubkadan ikkinchisiga aylanishni uzatish imkoniyati (2-rasm), hamda konsentrik nanotrubkalar gruppasidan mexanik ossillyatorlar chratish ifodalangan.



**2.19-rasm.** *Uglerd nanotrubkalar asosida nanoshesterenkalar» ni bog‘lash* NEMS ga yana bir yorqin misol tashqi elektr maydon yoki nur yordamida yuruvchi nanomashinalardir.

NEMS lar metrologiya sohasida, ayniqsa, juda kichik kuchlarni va molekulyar sathlarda siljishlarni o‘lchashda revolyusiya sodir etishi kutilmoqda. Ma’lumki, mexanik sistemalar xususiy chastota ( $\omega_0 \sim (keff/meff)^{1/2}$ , bu erda keff — effektiv qattiqlik, va meff — sistemaning effektiv massasi) bilan tebranadilar. Agar biz qurilmaning shaklini o‘zgartirmay, chiziqiy o‘lchami 1 ni kamaytirsak, u xolda (keff  $\sim 1$  bo‘lganda meff  $\sim 13$ ) wo kattalashadi.

Bunda  $\omega_0$  kattalikning yuqori qiymati sistemaning tashqi kuchlarga qarshi javobining yuqori tezliklariga mos keladi, bu esa NEMS lar asosida sezgir o‘lchov qurilmalarini yaratishga imkon beradi. Hozirda yaqindagina imkon yo‘qdek tuyulgan NEMS asosida tebranishning fundamental chastotasi 19GGs (1010Gs) dan yuqori bo‘lgan nanorezistorlar yaratilgan.

Bunday rezonatorlar skanerlovchi zond mikroseopiyasida kantileverlar, biologik molekulalar va DNK nanoog‘irlik va nanosensori sifatida qo‘llanilmoqda. NEMS larning boshqa afzalligi ularning energiyaning kam iste’mol qilishidir.

Agar olimlar uchun NEMS larni yaratish qiyin masala bo'lsa, uning echimi yaqin kelajaknig ishi bo'lib qolishini aytish kerak. Tabiat, million yillar mobaynida, turli nanomexanik qurilmalar yaratmoqda. Ko'pgina ma'lum biologik sistemalar – viruslar, bakteriyalar, bir to'qimali mikroorganizmlar va h.k. – atrof muhit ta'siri ostida, hamda neytronlarning elektr impulsi ta'siri ostida aralashishiga imkon beruvchi turli moslamalarga egadir.

Shuning uchun NEMS larni yaratish sohasining aktual yo'nalishlaridan biri prinsipial yangini yaratish emas, ma'lum bo'lgan tabiiy molekulyar motorlar mimikriyasidir. Balki tabiat yana bizga yaqindagina iloji bo'lmagan yana bir masalani echishga yordam berar.

Smartfonlarni boshqarish uchun "tabletka" ko'rinishidagi qurilma namoyish etildi Fingertips Lab startapi smartfonlarni boshqarish uchun mo'ljallangan noyob qurilmani namoyish etdi. Yangilik atrofi aylanuvchi uzukdan iborat katta tugmadan iborat bo'lib, ovoz orqali boshqarish uchun o'rnatilgan akselerometr va mikrofondan tashkil topgan. Bu qurilma smartfonlarni displayga qaramasdan boshqarish imkoniyatini beradi.



**2.20-rasm. Fingertips Lab startapi smartfonlar**

Tabletka ko'rinishidagi gadget O6 nomini oldi. Uni qo'lda bilakuzuk kabi yoki magnit klipslar yordamida kiyimlarda va avtomobilning rulida taqsa bo'ladi. Aksessuarni ovoz, qurilmaga o'rnatilgan g'ildirakcha, navigatsiya uchun to'rt klavishalar va o'rnatilgan akselerometrlar yordamida boshqariladi. O6 telefonlarga Bluetooth yordamida ulanadi. Qurilma orqali pochtani eshitish,

xabarlarga javob berish, qo‘ng‘iroq qilish yoki musiqa tanlash mumkin. O‘rnatilgan akkumulyator quvvat olmasdan 10 kungacha ishlay oladi. Hozirgi kunda O6 iPhone va iPad bilan ishlay oladi, ammo loyiha mualliflari Android smartfonlari bilan ham ishlash imkoniyatini kiritishni rejalashtirishmoqda. O6 qurilmasini ishlab chiqarish uchun Fingertips Lab startapi Kickstarter platformasida mablag‘ yig‘ishmoqda. Agar kompaniya etarli mablag‘ni yig‘a olsa, qurilma sotuvga 149 dollar narxida sotuvga chiqadi.

### III. BOB

## NAZARIY QISM. NANOSTRUKTURALAR VA ULARNING TURLARI, QO'LLANISHI

### 3.1. GETEROO'TISHLAR TUSHUNCHASI

Ikkita har xil moddalarining bir-biriga tutashuvi (kongaktga keltirilishi) geteroo'tishlar (GO') deyiladi. GO' ning har xil turlari mavjud:

1. Ikkita har xil yarim o'tkazgich asosidagi G'O'. Misol, GaAs va Ge, GaP va Si, CdTe va CdS va botqalar.
2. Metall va yarim o'tkazgich asosidagi GO' (Shotgki bareri misolida). Misol, Ai va Si, Ge va boshqalar.
3. Metall vayarim o'tkazgich orasidagi omik kontakt.

Geteroo'tishlarning fizikaviy xossalari o'r ganish va uni tahd^il qilish, ularning energetik diagrammalarini tuzish asosida olib boriladi.

**1-jadval**

PARAMETRLAR	GaAs	Ge
Elektronga moyillik, X va man qilingan zona kengligi, $E_g$ , (ev)	4.07, 1.45	4.13, 0.7
Kompensatsiya qilinmagan donorlar Konsentratsiyasi, $N_d-N_a, \text{sm}^{-3}$	$10^{16}$	
Kompensatsiya qilinmagan akseptorlar konsentratsiyasi. $N_a-N_d, \text{sm}^{-3}$		$3*10^{16}$
$E_C-E_F=\delta_{\text{Ga As}}, \text{ ev}$	0.1	
$E_F-E_V=\delta_{\text{Ga As}}, \text{ ev}$		0.14
Panjara doimiyligi, $\alpha, \text{A}^0$	5.654	5.658
Nisbiy dielektrik kirituvchanlik, $\epsilon$	11.5	16

Shuning uchun, qisqacha GaAs Ge geteroo'tishining energetik diagrammasi misolida ko'rib o'tamiz. Faraz qilaylik, berilgan yarim o'tkazgichlarning hajmdagi xususiyatlari ajralish chegarasigacha o'zgarmaydi va chegara qismida

keskin bir material xususiyatidan boshqa material xususiyatiga o‘zgaradi. GaAs va Ge materiali uchun man qilingan zonalar kengligi ( $E_g$ ) mos ravishda 1,45 va 0,7 eV ga teng.

Chiqish ishining kattaligi Fermi sathidan to vakuum sathigacha bajarilgan ish miqdoriga teng bo‘lgani uchun va Fermi sathining kirishmalar konsentratsiyasiga bog‘likligi sababli, uning o‘rniga elektronga moyillikni olish maqsadga muvofiqdir. ya’ni o‘tkazuvchanlik sohasi chegarasidan vakuum sathigacha bajarilishi kerak bo‘lgan ish qirishmaor energiyasiga bog‘lik emas. Jadvalda GaAs va Ge ni xarakterlaydigan energetik diagramma tuzish uchun kerak bo‘ladigan parametrlar keltirilgan.

### **3.2 GTEROO‘TISHLARNING ENERGETIK DIAGRAMMASI**

Elektronning  $E_g$  sathdagi energiyasi uning  $E_v$  sathdagi energiyasidan kam, shuning uchun Fermi sathlari tenglashuvi uchun ( materiallar kontaktga keltirilgan hol) bir qism elektronlar GaAs dan Ge ga o‘tadi. Bunday harakat (ko‘chish) chegaraviy qismda arsenid galliyda  $E_s$  sathining yuqoriga qayrilishiga olib keladi. Fermi sathining siljishi

$$E_{G^r} - E_{g^r} = (XGe + Eg(Ge) " §Gc) " (%GaAs + 5_{GaAs}) = V_{Dn} + V_{Dp} \quad (3.1)$$

bo‘lib, bu miqdor 0,52 eV ga teng bo‘ladi.

Bu erda  $V_{Dn}$ ,  $V_{Dp}$  - mos ravishda GO‘ ning energetik sohasidagn elektronlar va teshiklar uchun bo‘lgan energetik uzilishlar,  $5_{Ge}$  va  $5_{GaAs} \sim$  mos ravishda Ge va GaAs geteroo‘tish chegarasida materiallar o‘tkazuvchanlik va valent sohalari energetik nomuvofiqligi hisobiga hosil bo‘ladigan qo‘sishchap uzilishlar qiymati. Gomoo‘tishdagi kabi, chegara yaqinida  $\chi_r$  va  $\chi_p$  qalinliklarda zaryadga kam hududlar mavjud bo‘lib, zaryad saqlanish qonuniga asosan

$$\chi_r B_{axP} = N_a / N_d \quad (3.2)$$

saqlanishi kerak. Puasson tenglamasiga asosan

$$V_{Dn} = N_D (\chi_r)^2 / 2e_{GaAs} \text{ va } V_{Dp} = N_A (\chi_p)^2 / 2\epsilon_{N_0} \quad (3.3)$$

bu tenglamadan

$$V_{DII}/V_{Dn} = N_A / N_D \quad (3.4)$$

kelib chiqadi. Bizning hol uchun bu nisbat 4:1 ni tashkil qiladi. 1Luning uchun, bu nisbat 0,42 eV va 0,10 eV gatengdir.

Oddiy geometrik mulohazalar asosida  $AE_S$  uzilish uchun quyidagi tengliklarni keltirish mumkin.

$$AE_S = 5_{\text{GaAs}} + V_{Dn} - (E_{g(\text{Ge})} - 5_{\text{Ge}}) + V_{Dp} (\Pi)$$

$$AE_C = \Delta - \chi_{0\alpha A\bar{\nu}} \quad (3.5)$$

Valent sohadagi energetik uzilish uchun esa quyidagi tenglikni keltirish mumkin.

$$\Delta E_v = (E_{g(\text{GaAs})} - E_{g(\text{Ge})}) - (\chi_0 - \chi^\Delta) \quad (3.6)$$

va (12), (13) ifodalardan.

$$AE_S + AE\gamma = E_{g(\text{GaAs})} - E_{g(\text{Ge})} \quad (3.7)$$

hosil bo‘ladi. SHunday mulohaza asosida boshqa geterojuftliklar uchun ham energetik diagrammalarini tuzish mumkin. Bu diagrammalar ajralish chegarasida zaryad bo‘lмаган hol uchun to‘g‘ri bo‘ladi.

### **3.3. YARIM O‘TKAZGICHLI MATERIALLAR ASOSIDAGI GETEROJUFTLIKLER**

Geterojuftliklarni tanlash asosan ikkita kristallografik parametrni hisobga olishga asoslanadi. Bular panjara doimiyligi va issiqlikdan kengayish koeffitsientlaridir.

Panjaralar nomuvofiqligi agar bir necha foizni tashkil qilsa, u holda ajralish chegarasidagi yuza holatlar zichligi  $10^{14} \text{ sm}^{-2}$  va undan yuqori bo‘lishi mumkin, natijada geteroo‘tish xususiyatlari shu chegaraviy holatlarga bog‘lik bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar juftlanmagan valentlari yoki «bebosh» bog‘lanishlar hisobiga bo‘ladi. Natijada ajrapish chegarasida Quyidagi hollar kelib chiqadi;

- a) ajralish chegarasida energetik sohalarning qayrshshshi,
- b) ajralish chegarasida ortiqcha asosiy bo‘lmagai zaryad tashuvchilarining kuchli rekombinatsiyasi.

Agar ajralish chegarasidagi holatlar zichligi 10 sm va undan kamroq bo‘lsa, aytish mumkinki, chegaraviy holatlar o‘tish chegarasiga kam ta’sir qiladi va geteroo‘tish xususiyatlari tashkil qiluvchi materiallar orasida hosil bo‘lgan

guteroo‘tish xossapari bilan aniqlanadi. SHuning uchun asosan geterojuftliklar tanlashda panjaralar doimiyligining farqi 1% va undan kamroq bo‘lishi maqsadga mo‘vofiqdир. Quyidagi jadvalda ayrim geterojuftliklar va ularning parametrlari keltirilgan.

## 2-jadval

Materi -allar	$E_g$ (EV)	Panjara doimiy -ligi $\alpha$ , $A^0$	Soha tuzilishi	Issiqlikdan kengayish koeffitsient $i,C^{-1}$	kirishmalar	Elektronga moyill (ev)
GaAs	1.43	5.654	To’g’ri	5.8	Se, Te,Zn	4.07
Ge	0.66	5.658	To’g’ri- mas	5.7	Al,Ga,In	4.13
ZnSe	2.67	5.667	To’g’ri	7.0	Al,Ga,In	4.09
Ge	0.66	5.658	To’g’ri- mas	5.7	Al,Ga,In	4.13
AlAs	2.15	5.661	To’g’ri- mas	5.2	Zn	3.5
GaAs	1.43	5.654	To’g’ri	5.8	Se,Te	4.07

Geteroo‘tishli materiallar olish texnologiyasi asosan uch usulga asoslangan. Bular jumlasiga suyuq va gaz fazadan epitaksiya usuli, molekulyar-nurli epitaksiya usuli va vakuumdan o‘stirish usullaridir. Getero p-n utishlarning afzalliliklari.

QE geteroo‘tishli materiallar asosida tayyorlanganda quyidagi afzalliklarga ega:

- 1) Agar keng sohali birinchi yarim o‘tkazgichning man qilingan sohasi  $E_{g1}$ , keyingi yarim o‘tkazgichning man qilingan sohasi  $E_{g2}$ , va  $E_{g1} > E_{g2}$  bo‘lsa, qisqa to‘lqinu\i oralikda spektral sezgirlikning o‘sishi kuzatiladi.

2) Birinchi yarim o‘tkazgichni «optik darcha» sifatida qaralib unga maksimal ravishda kirishmalar kiritish (yorug‘lik o‘tishiga to‘sinqinlik qilmaydigan darajada) vositasi bilan QE ning ketma-ketlik qarshiligini kamaytirish imkoniyati tug‘iladi.

3) Birinchi yarim o‘tkazgichni qalin qilib olish mumkin bo‘lgani uchun, QE ning har xish nurlanish radiatsiyasiga chidamliligi ortadi. Bu esa QE larini koinotda ishlatilganida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **3.4 DATCHIK TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA TAVSIFI**

Datchik sezgir element bo‘lib, u nazorat qilinayotgan yoki rostlanayotgan kattalikni masofaga uzatilishi qulay xamda undan foydalanish oson bo‘lgan boshqa ko‘rinishdagi kattalikka aylantirib beradi.

Chiqish kattaligiga qarab datchiklarda mexanik va elektrik chiqishlar bo‘ladi. Birinchi gurux datchiklarda nazorat qilinayotgan xar qanday kattalik chiqishdagi mexanik kattaliklarga aylantiriladi. Ikkinci gurux datchiklarda esa noelektrik kattaliklar elektr kattaliklarga aylantiriladi. Chiqish signalini kuchaytirish, boshqarish, rostlash, masofadan turib o‘lchash qulay bo‘lganligi tufayli bu gurux datchiklar texnikada ko‘proq qo‘llaniladi.

Nazorat qilinayotgan noelektrik kattaliklar (bosim, xarorat, namlik, tezlik va sh.u.) ob‘ektni o‘ziga joylashtirilgan datchiklar orqali elektrik miqdor (tok, kuchlanish, zaryad)ga aylantiriladi. So‘ngra ular elektr o‘lchash qurilmalariga uzatiladi (bu qurilmalar shkalasi nazorat kilinayotgan kattalik o‘lchov birligida graduirovka qilingan bo‘ladi).

ARSlarda ishlatiladigan elektrik chiqishli datchiklar parametrik va generatorli datchiklarga bo‘linadi. Parametrik datchiklarda xar qanday fizik tabiatli kattaliklarni o‘zgarishi elektr zanjiridagi qarshilik R, sigim S, induktivlik L kabilarni o‘zarishiga sabab bo‘ladi. Odatda bu elementlar turli elektr zanjirlari (ko‘prik, potensiometr, logometr) ga ulangan bo‘lib, ularni chiqishlarida nazorat qilinayotgan kattaliklarga bog‘liq xolda kuchlanish xosil bo‘ladi. Generatorli

datchiklarda esa nazorat qilinayotgan kattaliklar EYUK ga aylantiriladi. Parametrik datchiklar uchun tashqi manbaa kerak bo‘ladi, generatorli datchiklar uchun esa manbaa kerak emas. Datchiklarni asosiy tavsiflariga quyidagilar kiradi: statik tavsif, sezgirlik, xato, inersionlik, sezgirlik chegarasi. Kirish va chiqish signallarini o‘zgarishlari ( $\Delta x$ ,  $\Delta u$ ) orasidagi funksional bog‘lanishlarga datchikni statik tavsifi-deb ataladi, ya’ni:  $\Delta u=f(\Delta x)$ .

Datchikni sezgirligi deb, chiqish kattaliklari o‘zgarishi  $\Delta u$  ni, kirish miqdorlari o‘zgarishi  $\Delta x$ ga nisbatiga aytildi; ya’ni  $S=\Delta u / \Delta x$ . Datchikni xatosi, bu chiqish signalini xaqiqiy miqdori bilan uni nominal qiymati orasidagi farqdir. Datchiklar yuqori sezgirlik va oz xatoga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Inersionlik-kirish signali o‘zgarishini elementga ta’sirini kechikishiga aytildi. Sezgirlik chegerasi-bu chiqish miqdori Uni o‘zgarishiga olib keladigan kirish miqdori  $X$  ni eng kichik qiymatidir. Avtomatli qurilmalarda quyidagi parametrik datchiklar ko‘proq tarqalgan: reostatli (potensiometrik), termoqarshilikli, tenzometrik (simli), induktiv, sigim, fotoelektrik (fotoqarshilik)li datchiklar.

### **Parametrik datchiklar**

1. Reostatli parametrik datchiklarda nazorat qilinayotgan noelektrik kattalik (siljish) zanjir qarshiligini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Reostatli datchiklarni tavsifi deb - surgichdan olinadigan kuchlanish  $U_{chik}$  ni potensiometr surgich siljishi  $X$  ga bog‘liqgiga aytildi.

Bunda

$$U_{aux} = \frac{U_m \cdot K}{1 + \frac{\kappa}{\alpha(1-\kappa)}} \quad (3.8)$$

bu erda:  $U_m$ -manba kuchlanish;  $k=x/l$ -surguchni nisbiy siljishi;  $\alpha(1-k)$  - yuklanish darajasi ( $R_n$ -yuklama qarshiligi,  $R$ -potensiometri to‘la qarshiligi).

2. Termoqarshilikli datchiklar (termorezistor, qarshilik termometrlari)da xaroratni o‘zgarishi o‘tkazgich va yarim o‘tkazgichlar qarshiliklarini o‘zgarishiga olib keladi. Ular texnikada  $200^0S$ dan  $700^0S$ gacha bo‘lgan xaroratni o‘lchash uchun ishlatiladi. Bunday termometrlar metallar (asosan platina, mis)dan xamda yarimo‘tkazgichlardan (manganets, kobalt)dan xam

tayyorlanadi. Ularning ishlashi metallar va yarimo'tkazgichlar (termistorlar) qarshiliginini xaroratga bogliqligiga asoslangan. Ma'lumki, xarorat ko'tarilganda metallar qarshiliqi oshadi, termistorlarniki esa kamayadi.

3.Tenzometrik (simli) datchiklarda-mexanik zo'riqishlar o'tkazgich va yarim o'tkazgichlar qarshiliklarini o'zgarishiga olib keladi. Tenzodatchik zigzaksimon ko'rinishdagi ingichka konstantin simdan (diametri 0,01-0,05mm) iborat bo'lib, ikkala tomonidan yupqa qag'oz yopishtiriladi. U detalga elim bilan mustaxkam qilib yopishtiriladi va detal bilan birgalikda siqiladi yoki cho'ziladi. Tenzodatchik simlarini uchlari folgalar orqali o'lchov sxemalariga ulanadi.

4. Induktiv datchiklarda po'lat o'zagni siljishi g'altak induktiv qarshiligini o'zgarishiga olib keladi

Indiksion datchiklar ko'prok ko'priq sxemalarda qo'llaniladi.

5. Fotoelektrik datchiklarda ko'proq qabul qiluvchi organlar sifatida fotorezistorlar, vakuumli fotoelementlar, fotodiodlar, fototriodlar va fototiristorlar qo'llaniladi. Bunday datchiklarda ularni ishchi yuzasiga tutashgan yoruglik oqimi asbobni elektr o'tkazuvchanligini o'zgarishiga olib keladi. Fotorezistorlarda yoruglik ta'sirida elektronlar soni kupayib elektr o'tkazuvchanligi ortadi. YOruglik ta'sirida yarimo'tkazgich o'tkazuvchanligini ortishiga ichki fotoeffekt –deb ataladi.

Vakuumli fotoelementlarda fototok faqat yoritilganlikkagina bog'liq, unga quyilgan kuchlanishga bog'liq emas. Fotodiod yarimo'tkazgichli yoruglik energiyasini qabul qiluvchi qurilma xisoblanadi va unda yoruglik ta'sirida elektr zaryadlarini tartibli xarakati sodir bo'ladi. Fototriodlar nurlanish energiyasi ta'sirida fototokni kuchaytirish xususiyatiga ega. Uni fotodiordan afzalligi shundaki, uni ishini yorug'lik oqimi bilangina emas balki, bir vaqtda elektr signalni orqali ham boshqarish mumkin.

Fototiristor yoruglik bilan boshqariladigan R-n-P-n o'tishli 4 qatlamlili yarim o'tkazgichli asbobdir.

### **Generatorli datchiklar.**

Generatorli datchiklarga quyidagilar kiradi: termoelektrik, induksion, p'ezoelektrik. Termoelektrik datchiklarni ishlashi termoelektrik xodisasiga asoslangan bo'lib, o'lchanayotgan miqdorni o'zgarishi termo EYUK xosil bo'lishiga olib keladi. Bularga misol qilib termoparalarni olish mumkin. Induksion datchiklarda chiziqli yoki burchak siljishlar EYUK induksiyalanishiga sabab bo'ladi. Bunga misol qilib o'zgarmas tok generatorlarini olish mumkin. P'ezoelektrik dastchiklarni ishlashi esa mexanik bosimlar ta'sirida kvars, segment tuzi kabi kristallarni polyarizatsiyalanish xodisasiga asoslangan.


### **3.5 DATCHIK CHIQISH SIGNALLARINING FIZIK TABIATI**

Xisoblash texnikasi vositalari, odatda elektr signallari ko'rinishida beriladigan malumotlar bilan, ba'zida esa boshqa tabiatdagi signallar bilan (masalan , pnevmoelementlar, oqim elementlar asosida) ish ko'radi. Lekin ko'p xollarda datchikning chiqishidan ma'lum tavsifli elektrsingallar xosil qilinishi kerak. Shuning uchun, noelektrik kattaliklar (temperatura bosim, fazoda vaziyatni o'zgartirish va xakoza) datchiklar, odatda, noelektirik kattaliklarni elektr signaliga o'zgartkichlar bilan ta'minlangan. Bu o'zgartkichlar (ular ba'zan ikkilamchi asboblar deyiladi) tuzilish jixatidan, odatda, o'lchovchi (qayd etuvchi) element bilan birgalikda tayyorlanadi, «datchik» atamasi esa o'zgartkich bilan birgalikdagi o'lchov elementini ifodalaydi. Zamonaviy xisoblash texnikasi vositalari quyi darajada (taxminan 6-24 V o'zgarmas tokda) diskret elektr signallari bilan ishlashga mo'ljallangan. shuning uchun, datchik chiqish signalining darajasi shu darajaga mos kelishi maksadga muvofikdir. O'bekt bilan bog'lanish qurilmalari asosida ishlab chiqiladigan xisoblash texnikasi vositalari komplektiga, odatda, yuqori voltli (yuqori kuchlanishli) signallarni (masalan, 220 V ) qabul qilish uchun mo'ljallangan bloklar xam kiritilgan. Biroq bunday bloklardan foydalanish faqat chiqishi past voltli datchikdan foydalanish mumkin bo'limgan xollardagina maqsadga muvofiq.

Diskret signallar datchigi chiqishida faqat ikkita qiymatga ega bo‘lishi, ularni 0 (signal yo‘q) va 1 (signal bor) tarzida talqin etish mumkin. Bunday datchiklarni tanlashda buyurtmachi o‘zgartkichning chiqishida 0 elektr signaling maksimal qiymati 1 signaling maksimal qiymatidan (tizim bu qiymatlarni 0 uchun 1 ni va aksincha qabul qilib “adashtirmaslik ”uchun) ancha farq qilish (5-10 marta) kerakligini xisobga olish lozim. O‘xhash signalli datchiklar o‘lchanayotgan kattalikning butun diapazoni bo‘yicha standart chiqishga ega bo‘lishi kerak (odatda bu tokning 0 dan 5 mA oraliqda o‘zgarishi, kuchlanishning 0 dan 10 V gacha oraliqda o‘zgarishi yoki ayrim xollarda datchik xosil qiladigan chostota o‘zgarishidan iboratdir).

Ishlash prinsipiga ko‘ra datchiklar kontaktli va kontaktsiz turlarga bo‘linadi. Kontaktli datchikning chiqishidagi signal kontaktlarining, (masalan, elektr rele kontaktlarining) mexanik tutashuvi xisobiga elektr zanjirining ulanishi natijasida shakillanadi. Kontaktsiz datchik chiqishidagi signal kontaktsiz elementning (masalan, tranzistorning) qayta ulanishi natijasida shakillanadi. Xisoblash texnikasi vositalari kontaktsiz elementlardan qilingani uchun o‘zining ishslash prinsipi bo‘yicha xam, elektr signallari parametrlari bo‘yicha xam tizimga oson moslashib ketadigan kontaktsiz datchiklar afzalrokdir.

Shuni takidlab o’tish joizki, kontaktli datchiklardan faqat boshqalari bo‘limganda yoki datchik bilan tizim kirishi o‘rtasida galvanik bog‘lanish yo‘qligini ta’minlash talab qilingan hollardagina fiydalanish mumkin (malum bir sabablarga kura). U xolda o‘bektning chiqish signali sifatida Datchikning “sof” kontaktidan foydalaniladi. 3.1-rasm, a da kontaktsiz datchikning chiqishi bilan bog‘lanishi sxematik ko‘rsatilgan. 3.1-rasm b , d da esa datchiklarning kontaktli o‘zgartkich bilan ulanishining ikki usuli sxematik kursatilgan.



**3.1-rasm.** Kontaktsiz va kontaktli datchiklarning tizim bilan bog'lanish sxemalari:

a- kontaktsiz datchikning tizim chiqishi bilan bog'lanishi sxematik ko'rinishi;  
 b , d - datchiklarning kontaktli o'zgartkich bilan ulangan ikki usulining sxematik kurinishi . 3.1-rasmda kuydagilar shartli ravishda tasvirlangan :

1. boshqarish o'bekti;
2. datchikning o'lchash elementi;
- 3.1 kontaktsiz ikkilamchi asbob (datchik o'zgartkichi);
- 3.2 kontaktli o'zgartkich;
4. tizimning kirish signallarini qabul kilish bo'gini ;
5. boshqarish tizimi;

U datchikni taminlovchi kuchlanish.

Termoelektr materiallar va termoelektr o'zgartkichlar. Turli o'tkazgichlarning ixtiyoriy jufti termoelektr o'zgartkichni tashkil etishi mumkin, ammo xar bir juftlik xam amalda qo'llash uchun yarayvermaydi. Zamonaviy o'lchash texnikasi termoelektr o'tkazgichlar tayyorlanadigan materialarga ko'pdan ko'p talablar qo'yadi, ammo bu talablarni juda kam sonli materialargina qondiradi. Barcha materiallar va qotishmalar uchun termo elektr yurituvchi kuchning xaroratga funksional bog'liqligi murakkab bo'lib uni analitik ifodalash ancha qiyin. Platinarodiy platina jufti bundan istisnodir . Bu juftlik uchun termo elektr yurituvchi kuch bilan xarorat orasidagi bog'lanish 300 dan 1300 °S gacha bo'lgan oraliqda, sovuq ulanma xarorati 0° S bo'lganda etarlicha aniqlikda parabolaga mos keladi:

$$E_{(t,t_0)} = a + bt + ct^2 \quad (19)$$


Bu erda: a,b va s –surma ( $630,5^{\circ}$  S), kumush ( $950,8^{\circ}$  S), va oltin ( $1063^{\circ}$  S) larning qotish xarorati bo‘yicha aniklanadigan doimiylar. Xozirgi vaqtida quyidagi metall termoelektrodli termoelektr termometrlar qo‘llaniladi. Ularning xarakteristikalarini 4-jadvalda keltirilgan .

Xromel –kapelli (56 % Si-44 % Ni) termoelektr termometrlar standart termometrlar orasida eng katta o‘zgartish koefitsientiga ega ( $70\dots90 \text{ mk } V^{\circ} \text{ C}$ ). Termoelektrod diametri 1 mm dan kam bo‘lgan termometrlar uchun chegaraviy qo‘llanishi  $600^{\circ}\text{S}$  dan kam , masalan, diametri  $0,2\dots0,3 \text{ mm}$  bo‘lgan termoelektrodlar uchun faqat  $400^{\circ}\text{S}$  ni tashkil etadi. YUqori o‘lchash chegarasi kopelli elektrod xarakteristikasining barqarorligiga bog‘liq. Nikel-xrom-nikel-alyuminiyli (94% Ni+2%Al+2,5%Mn+1%Si+0,5% qo‘shilma) termometrlar turli muxit xaroratlarini keng chegaralarda o‘lchash uchun qo‘llaniladi. Ular avval xromell-alyuuminili termometrlar deb yuritilar edi. Nikel-alyuminiy simdan tayyorlangan termoelektrod oksidlanishga nikel-xromga nisbatan kamroq chidamli. Qo‘llashning yuqori chegarasi termoelektrod diametriga bog‘liq. Diametri  $3\dots5 \text{ mm}$  bo‘lgan termoelektrodlar uchun qo‘llashning yuqori chegarasi nikel-xrom –nikel-alyuminiyli termometrlarda  $1000^{\circ}\text{S}$  ni tashkil etadi  $0,2\dots0,3 \text{ mm}$  diametr uchun  $600^{\circ}\text{S}$  dan ortiq emas. Platinarodi (30% rodiyli) - platinarodiyli (6% rodiyli) termoelektr termometrlar uzoq vakt davomida xaroratlarning  $+300$  dan  $1600^{\circ}\text{S}$  gacha oraligida, qisqa vaqt davomida  $1800^{\circ}\text{S}$  gacha qo‘llanadi . Musbat elektrod -30% rodi va 70% platina qotishmasidan, manfiy elektrod -6% rodiy va 94 % platina qotishmasidan tashkil topgan. Maskur termometrlar platinarodiy –platinali termometrlarga qaraganda darajalash xarakteristikalarining barqarorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Volframerniy-volframreniyli (TVR-5/20 va TVR -10/20) termoelektr termometrlar uzoq vaqt davomida 0 dan  $2200^{\circ}\text{S}$  gacha va qisqa vaqt davomida  $2500^{\circ}\text{S}$  gacha, shuningdek, vakuumda , neytral va tiklanadigan muxitlarda xaroratlarni o‘lchashga mo‘ljallangan.

Musbat termoelektrod 95% volframdan va 5% reniyidan yoki 90% volframdan va 10 % reniyidan tashkil topgan qotishma, manfiy elektrod 80% volframdan va 20% reniyidan tashkil topgan qotishma .

Sanoatda termoelektr o‘zgartkichlarning 9 turidan foydalilanadi. 11-rasmida ba’zi standart termoelektr termometrlarning elektr yurituvchi kuchi bilan xarorat orasidagi bog‘lanishi ko‘rsatilgan. TXK turidagi termojuft boshqa standart termojuftlarga qaraganda ancha katta termo elektr yurituvchi kuch xosil qila oladi.



**3.2-rasm. Termoelektr termometrnning erkin uchlari xaroratga tuzatma kiritish**

Ximoya giloflari, ko‘pincha, + 1000 °S gacha xaroratlar uchun po‘latning turli rusmlaridan tayyorланади. Bundan xam yuqoriроq xaroratlarda qiyin eriydigan birikmalardan tayyorlangan maxsus giloflar ishlataladi . Oxirgi vaqtda kabel turidagi termoelektr termometrlar keng tarqalmoqda. Ular bosim 40 mPa bo‘lganda -50 dan +1100°S gacha bo‘lgan xaroratlar oraligida ko‘llaniladi. Kabel turidagi termometrlarning muxim afzalligiga ularning AES larning energetik reaktorlarida ishlashga imkon tugdiradigan radiatsion chidamliligi, shuningdek, issiqlik zarblariga, tebranishga va mexanik kuchlarga nisbatan chidamliligining yuqoriligi kiradi.Sirt xaroratlarini o‘lchashga mo‘ljallangan termoelektr termometrlar maxsus tuzilishga ega. Bunday termoparalardan kimyo sanoatida keng foydalilanadi, ular turli uskna, quvur,

mashinalarning aylanuvchi qismi va xakozalarning sirt xaroratini o‘lchashga xizmat qiladi.

Maxsus termoelektr termometrlardan vertikal uskunalarda (ammiak sintezi kolonnalarida, metanol va xakazolar) xaroratni o‘lchash uchun ishlatiladigan ko‘p zonali termometrlarni ko‘rsatish mumkin. Termoparalarning asoiy kamchiligi sifattida ularning inersonalligining kattaligini ko‘rsatish mumkin (5 minutdan xam oshadi).

## **IV BOB**

### **NANOMATERALLARNI TADQIQ QILISH VA OLİSH TEXNOLOGIYASI, QURİLMALARI**

#### **4.1 ATOM KUCH MIKROSKOPIYASI (AKM)**

Nanotexnologiya sohasida mamlakatimiz olimlari va mutaxassislarining olib borayotgan ilmiy tadqiqotlari ham yuksak natijalar bermoqda. Jahon ilm-fanining bunday ixtiolarining yutuqlarini chuqur o'rganish va uni hayotga tatbiq etishda mamlakatimiz ilm-fan markazlarida ham qator loyihalar amalga oshirilmoqda.


Inson ko'zining ajrata olish qobiliyati 100 mikrometr (0.1mm) atrofida. Bundan ham mayda predmetlarni ko'rish uchun maxsus qurilmalar talab etiladi.

Atom kuch mikroskopiyasidan foydalanganda namuna orqali elektr toki o'tishi talab qilinmaydi. Shu sababdan Atom kuch mikroskopiyasi biologik ob'ektlar – aminakislatalar kristallarini, oqsillarni, to'qima membranalarini va ko'plab boshqa narsalarni tahlil qilish uchun keng qo'llaniladi.

Atom kuch mikroskopiyasi (AKM – inglizchada "AFM" yani atomic-force microscope) – keng qamrovli skanlovchi zond mikroskopi bo'lib, u tekshirilatgan namunaning sirtini kontelever qurilmasi bilan zondlashga asoslangan. Atom kuch mikroskopi sirt relyefini o'lchashda, sirtni modifikatsiya qilishda, hamda mikro va nano sirtlarni monipulyatsiya qilishda ham qo'llaniladi.

Odatda konteleverda zondlashdagi o'zaro itrishish va tortishish tushunchasi Van-der Vals kuchidan kelib chiqqan. Maxsus konteleverdan foydalanib, sirtning elektr va magnit xossalari o'rganish mumkin. U Skanlovchi tunnel mikroskopiga qulayligi yaqinroq, Atom kuch mikroskopiyasida elektr o'tkazuvchi va elektr o'tkazmaydigan sirtni ham tekshirishi mumkin. Shuningdek, Atom kuch mikroskopiyasi usulida o'lhash mumkin bo'lgan organik modda bilan birga DNK molekulalari aniqlashga imkon beradi. Atom kuch mikroskopiyasidagi egrilik radiusi uchidagi zond

fazoda harakatladi. Unda atamar darajada vertikal hamda gorizontal bo'yicha siljitim mumkin.



**4.1-rasm.** Kontelever zondini 2 xil tasviri.

### Atom kuch mikroskopining tarixi.

Skanlovchi atom kuch mikroskopi 1986-yil AQSH da Skanlovchi tunnel mikroskopining ixtirochilari Gerdom Binning va Kristofom Gerberom tomonidan kashf qilingan.

XVII –asr oxida ixtiro qilingan optik mikroskop inson uchun yangi olamni – birinchi navbatda jonli to'qimalar dunyosini ochdi. Bunday optik mikroskopni ajrata olish qobilyatining tabiiy chegarasi – yorug'lik to'lqinining uzunligi bo'lib va bu chegaraga XIX – asr oxirida erishilgan. Mikro olam ichiga kirishning navbatdagi bosqichi elektron mekroskop bo'ldi. Elektron mekroskopda yorug'lik nuri vazifasini elektronlar dastasi o'ynaydi. Uning ajrata olish qobilyati bir necha angestrum ( $0.1\text{nm}$ ) larga yetadi. Buning natejasida olimlar veruslar, alohida molekulalar va hatto atomlarning tasvirini olishga ham erishdilar. Lekin optik va elektron mikroskop faqat tekis (yassi) manzarani beradi. Mikro olamning uch o'lchamli strukturasini ko'rishga faqat optik nur o'niga ingichka ignadan foydalanilganda erishildi.

Boshlanishida mikrozond yordamida mexanik skanlash tamoyili "Skanlovchi tunnel mikroskopiyasi"da qo'llanildi. Keyin esa bu asosuida "Atom kuch mikroskopiyasi"ning yanada universal usuli ishlab chiqildi.

Atom kuch mikroskopiyasi turli xil qattiq materiallar – shishalar, kramika(sopol)lar, plastiklar, metallar, yarimo'tkazgichlarning strukturasini atom darajasida tahlil qilishga imkon beradi. O'lhashlarni faqatgina vakumda

emas balki, havoda istalgan gaz atmosferada va hatto suyuqlik tomchisida ham o'tkazish mumkin. Bu usul biologik ob'ektlarni tadqiq qilish uchun ham betakror hisoblanadi.

Mikrozond o'zida yupqa plastinka – konsol (uni inglizchda “cantiliver” – konsol, balka so'zidan kontilever deb ataladi)ni aks ettiradi. Kontlever uchuda o'tkir ship (mix yoki uch aylana radiusi 1-10nm gacha) joylashgan. Mikrozondning namuna sirti bo'ylab ko'shida o'tkir shiplar ko'tariladi va pastga tushib, gramplastinka ustuda patefon ignasi sirpanganida o'xshab sirt mikrolelyefini chizadi. Kontileverning yuqoridagi uchida (ship ustuda) ko'zguli maydoncha joylashgan bo'lib, unga lazer nuri tushadi va qaytadi. Ship sirtidagi notekisliklardan pastga tushganda va yuqoriga ko'tarilganda qaytgan nur og'adi va bu og'ish fotodetektor bilan qayd qilinadi.

Fotodetektordan olingan ma'lumotlardan teskari aloqa tizimida foydalilaniladi. Bu tizim namuna ustudagi o'tkir uch bosim kuchining doimiy bo'lishini ta'minlaydi. P'yezoelektrik almashtirgich namuna relyefini o'zgarishini real vaqt maromida qayd qilishi mumkin. Boshqa ish maromida namuna ustudagi shipning vaziyati o'zgarmas bo'lganda o'tkir uchning sirt bilan ta'sirlashuv kuchi qayd qilinadi. Mikrozond odatda kremniy yoki kremniy netrididan yasaladi. Bu usulning ajrata olish qobiliyati gorizontal o'q bo'yicha taqriban 0.1-1nm ni va kompyuter yordamida uch o'lchamli tasvirni qurish mukin.

Skanlovchi atom kuch mikroskopi xuddi Skanlovchi tunnel mikroskopi singari skanlovchi zond mikroskopi bo'lib hisoblanadi. Skanlovchi tunnel mikroskopilarni yaratish davomida zond bilan taglik atomlari o'rtasida sezilarli o'z'aro ta'sir kuchlarining borligi aniqlangan.

Skanlovchi atom kuch mikroskopida anashu ta'sirda signal olish yo'lga qo'yilgan. Umuman olganda zonali atom kuch mikroskopi turli o'z'aro ta'sir kuchlari ta'sirida ishlaydi. Masalan, atomlar orasidagi o'zaro ta'sir kuchi, issiqlik o'tkazuvchanlik, magnitlar orasidagi o'zaro ta'sir kuchilari va shu kabilardir.

Hozirda atom kuch mikroskopilarning bir qancha turlari mavjud, ular orasidagi eng ko'p tarqalgani atomlar orasidagi o'zaro tortishish va itrishish kuchlariga asoslanib ishlaydigan bo'lib hisoblanadi.


Atom kuch mikroskopilar uchun atomlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchiga taglikning o'tkazuvchanligi ta'sir ko'rsata olmaydi, shuning uchun o'lchashlarni nafaqat o'tkazuvchan materiallarda, balkim dielektriklarda, organik va biologik materiallarda ham amalga oshirish mumkin.

Shuning uchun atom kuch mikroskopi Skanlovchi tunnel mikroskopiga qaraganda turli tadqiqotlarda, nanotexnologiyalarda va koplab sohalarda keng qo'llash mumkin.


#### **4.2 SKANLOVCHI ATOM KUCH MIKROSKOPINING ISHLASH PRINSIPI**

Skanlovchi atom kuch mikroskopining ishlash prinsipi qiyidagi rasmda keltirilgan:

Namunaning sirti o'tkir uchli zond bilan skanlanadi.Zond deformatsiyalarga juda sezgir bo'lgan maxsus yupqa konsolga maxkamlangan bo'ladi va buni birgalikda kontelver deb ataladi.Kontelverning asosi to'rtburchak qism 3 kordinatali ( $P_x P_y P_z$ ) p'yezoskanerga mahkamlangan bo'ladi.Uni ko'rinishi quyidagicha:




**4.2-rasm.** Skanlovchi atom kuch mikroskopining ishlash prinsipi



#### 4.3-rasm.

Bu jarayonda kontelverning uchta ish rejimi bor bo'ladi:

- 1) Kontakli (kontakli holat)
- 2) Kontaksiz (kontaksiz holat)
- 3) Yarim kontakli (yarimkontakli holat)
  - 1) Kontakli ish maromi - kontakli ish maromida zond bilan sirt orasidagi masofa  $Z_0=0.2-0.4$  nm tartibida bo'ladi. Bunday masofalarda tortishish va itarishish kuchlari bir – birini o'zaro muvozanatlaydi.



**Рис. 2.4.** Относительное расположение зонда и подложки (а) и сила взаимодействия зонд-подложка, регистрируемая в атомном силовом микроскопе (б)

#### 4.4-rasm.

Agar yig'indi kuchlanish musbat bo'lib qolsa, bu tortishish kuchlaridan kichik bo'lган holatdir.  $F_T < F_i$  va zond bilan taglik o'zaro kontakga kirdi deb ataladi.

Zondning keyingi yaqinlashishlarida itarishib kuchlari ortib ketadi va u yaqinlashganlarga intiluvchi har qanday kuchni muvozanatlashtiradi.

Agar zondning namunaga kontelverning ilastiklik kuchi bilan yaqinlashtirib tegishtirsak u egiladi. Zondni katta kuch bilan bosganda namuna sitrti deformatsiyalanadi, zond bilan sirt orasidagi masofa o'zgarmaydi. Bunday masofani kontakt masofasi deb ataladi va u  $Z_0$  ga teng bo'ladi. Kontakli ish maromida o'zaro itarishish kuchlaridan foydalaniladi.


Muvozanat holatida itarishish kuchi zondni sirtga siquvchi ikkita kuch bilan muvozanatlanadi: 1-kuch konturning elstik kkuchi, 2- kuch bu atmosfera (ya'ni vakumda emas) sharoyitlarida zond va sirt orasida suvli memsik paydo bo'ladi va uning natejasida kapilyar kuchlar paydo bo'ladi va bu kuch tortishish xarakteriga ega.

Bu kuchlarning yig'indi qiymati  $10^{-7}$  -  $10^{-9}$  N ga teng bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday deformatsiya hosil qilgan kuchlarni o'lchash mumkin. Odatda bu deformatsiyaning kattaligi 1-100 nm gacha bo'ladi.

Kontakli ish maromida zondga ta'sir qiluvchi kuchning doiyimiyligi ta'minlanadi. Bunda boshqaruvchi Kontelverning ma'lum bir aniq qiymatlaridagi egilishlarni ta'minlaydi. Agar skanlash jarayonida zond chuqurlikga yoki dunglikga to'g'ri kelib qolsa, kontelverning egiluvchanligi  $\Delta Z$  ga o'zgaradi va bu o'zgarish atom kuch mikroskopining optik tizimi yordamida qays qilinadi.

Lazer nuri kontelverning yuqori sirtidan qaytib, fotodetektorga tushadi va konsolning egilishlari o'zgarishlariga proporsional bo'lган fototokni qayd qiladi. Fototok teskari aloqa tizimi orqali p'yezdvegitilning kuchlanishini o'zgartiradi va natejada zond ko'tariladi yoki pasayadi.


Kontakli ish maromi sirti juda qattiq va mustahkam bo'lgan moddalar sirtini o'zgartirishda foydalaniladi. Ish maromining kamchiligi – sirt va zondning buzilish (tirnalish, izlar) hosil bo'lishlaridir. Bu ish maromi haqiqiy atomli ajrata olish qobiliyatini bermaydi.



**4.5-rasm.**

2) Kontaksiz ish maromi - bu ish maromida zond bilan taglik atomlari orasidagi o'zaro tortishish kuchlaridan foydalaniladi. O'zaro tortishish kuchlarining xaraktori o'zaro itarishish kuchlarning o'zgarishiga qaraganda kichik bo'ladi . Zond uchidan sirtgacha bo'lgan masofa 5-10 nm tartibida bo'ladi va shuning uchun bu ish maromida kontelverning egilishlari kontakli ish maromiga ancha kam bo'ladi, shuning uchun bu egilishlarni optik usul bilan qayd qilib bo'lmaydi va bu bunda egilishlarni qayd qilishda boshqa usullardan foydalaniladi. Bunda kontelverning sirtiga kontelverni rezonans chastotasiga yaqin chastotada tebrantirilaoladigan p'yezoelement yopishtiriladi. U 0.2-0.3 mGs da tebranadi.

Rezonans chastotasining kattaligi tashqi ta'sir kuchining kattaligiga bog'liq ravishda rezonans chastotasi o'zgarib boradi. Teskari aloqa sistemasi esa rezonans chastotasini kontelverni ko'tarish yoki tushurish orqali doimiy qilib ushlanadi.



#### **4.6-rasm. Mikroskopni yaratishdagi asosiy texnik qiyinchiliklar:**

- Ignani (zond uchuni) yasashda atom o'lchamigacha o'tkirlashtirish;
- 0.1 angestrum darajada mexanik tueg'unlikni ta'minlash;
- Juda kichik hajmdagi mustahkam qayd qiladigan detektor yaratish'
- Turli xil angestrum qadamlari bo'yicha yoyish tizimini yaratish;
- Sirt bilan ignanining bir-biriga mosligini ta'minlash

va shu kabilardan iborat.

#### **Ishning mohiyati:**

Atom kuch mikroskopini Rastrli elektron mikroskopga qiyioslash mumkin. Ammo, atom kuch mikroskopi rastrli elektron mikroskopga qaraganda bir necha avzalliklarga ega, chunki namuna sirtini rastrli elektron mikroskopda uch o'lchamda tasvirlash qiyin, atom kuch mikroskopiyasida esa sirt relyefini uch o'lchamda olish mumkin.

Shuningdek, unda qoplamlari sirt talab etilmaydi va sezilarli deformatsiyaga olib keladi. Rastrli elektron mikroskop normal ishlashi uchun vakum zarur bo'ladi, atom kuch mikroskopiyasini atmaosfera (yani vakumsiz) sharoyitda hatto suyuqlikda ham yuqori rejimda ishlatalish mumkin. Rastrli elektron mikroskopyasiga qaraganda mazkur atom kuch mikroskopiyasida bir necha qulayliklar mavjud. Shunday bo'ladiki, yuqori vakum sharoyitida atom kuch mikroskopiyasi real atomlar bilan ta'minlanadi. Yoyuvchi elektron mikroskop va Skanlovchi tunnel mikroskopiga qaraganda ishlashi bo'yicha yuqori vakumda ham atom kuch mikroskopini taqqoslash mumkin.

Atom kuch mikroskopiyasining kamchiligi Rastrli elektron mikroskopiyasi bilan taqqoslaganda juda kichik o'lchamli maydon bo'yicha skanlashidir. Rastrli elektron mikroskop skanlash holatida yonlama tekislik

bo'yicha bir necha mm va vertikal tekisligi bo'yicha bir necha mm skanlashda farq darajasi mavjud. Atom kuch mikroskopiyasida esa yuqori balandlik farqi bir necha mikrondan iborat bo'lib, unda maksimal skanlash maydoni tasodifiy holatda taxlanishi  $150 \times 150$ mekron<sup>2</sup>. Ikkinchi muommo shundaki, zondning egrilik radiusini uchini aniq tasvirlashdagi yuqori sifatga erishish bo'lib, zondni noto'g'ri tanlab qo'yilsa olingan tasvirlardan noto'g'ri (boshqacha) xulosalar kelib chiqadi.

Odatdagি atom kuch mikroskopiyasi sirtni skanlashda tezlik holatda emas, balkim rastrli elektron mikroskopyasidek ishlaydi. Atom kuch mikroskopiyasida tasvirni olish uchun bir necha minutdan bir necha soat vaqt talab etadi. Rastrli elektron mikroskopiyasi bu vaqtda ma'lumotlarni olgandan keyin uncha sifatli bo'lmasada bir necha vaqt real holatda ishlash qobilyatiga ega. Atom kuch mikroskopini ishlash sur'atini oshirish uchun bir necha konstruksiyalarkeltirilgan. Bular atoriga Atom kuch mikroskop Vediosi deb nom olgan zondlash mikroskopi kiradi. Odatdagи Rastrli elektron mikroskopiga qaraganda Atom kuch mikroskop Vediosi yuza tekisligini sifatli darajada televizion chastotasi yoyilmasidek tasvirni olib boradi.

Real masshtablardagi vaqtda yomonlashgan tasvirni to'g'rilash uchun zamoniy Atom kuch mikroskoplarida dasturiy programma ta'minotlaridan (masalan: skanerlarni orentrlashni ta'minlash) o'z tarkibida chiziqli datchik holati bo'lgan skanerlardan foydalilanadi. Ayrim Atom kuch mikroskoplarda skaner o'rniga p'yezotrubkaga o'xshagan mexanik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'limgan X Y va Z elementlari ishlatiladi, bu esa zararli aloqani yo'q qilishga yordam beradi. Qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash va qayta tiklashda AKM larini ishlatish. Qoida bo'yicha zond mikroskopida skanerlangan tasvir sifati yomon bo'lganligi uchun rasshefrofkaga yomon o'tadi. Amaliy holatda ilk marta qayd qilingan tasvirlar matematik jihatdan muhokama qilib chiqiladi. Buning uchun dasturiy CZM dasturiy qo'llanmasi ishlatiladi, bundan tashqari GNU letsenziyalı dasturiy ta'minotlar ham bor (masalan: Gwyddion8)

### **4.3. GAZ FAZASIDA NANOZARRALARNI OLİSH USULI.**

**“BUG**

**“~~KONDENSATSIYA~~” JARAYONIDA**

#### **NANOZARRALARNI OLİSH**

Sirt va sirt osti qatlamlarining tarkibi va xususiyatlarini o’zgartirish usullari: eritmalarda kimyoviy ishlov berish, elektrokimyoviy oksidlash, diffuziya, implantasiya, amorfizasiya, kuydirish(otjig).

Nanoo  
qonuniyati bo  
xizmat qiladi ayni shu o  
usullarini va texnologiyasini aniqlab beradi.


Nanozarralarni olish usullarini barchasini ikkita guruxga ajratish mumkin. Birinchi umumlashtiruvchi usul, bu usulda nanozarralarni olish va ularni o  
mumkin emas. Ushbu usulga: o  
usulini, ba  
bug ‘latish usullarini kiritishimiz mumkin.

Ikkinci guruxga esa, nanozarralar asosida materiallar olish imkoniyatini beruvchi usullar mansubdir. Bunga birinchi navbatda mexanik-kimyoviy maydalash, gaz fazasidan kondensatsiya qilish, plazmakimyoviy metodlar va boshqalar kiradi.

Usullarni bunday tadsimlash albatta nisbiy jihatdandir. Shu bilan birga ularni yana bir hususiyatini akslantiradi: ya  
agregatsiyalarni yiriklashtirish, boshqacha aytganda “pastdan yuqoriga”, yoki turli dispergiya qilish, boshqacha aytganda “yuqoridan – pastga” birinchi yondoshuv asosan nanozarralarni kimyoviy usul bilan olishga molikdir, ikkinchi yondoshuv esa fizik usullarga. Nanozarralarni alohida atomlarni yiriklashtirish orqali olish usuli, nanokimyoning eng quyi chegarasi sifatida ko  
bilan aniqlanadi, ammo atomlarni sonining ortib borishi, ularning kimyoviy xossalarni sifatli o ‘zgarishiga olib keladi.

Gaz fazasida ko ‘pincha  
 bug ‘latishensatsiya (plazmada yoki elektrik dugada bug ‘latish);  
 cho ikema yasir qilish foibokini yash, qattiq  
 faza zarralarini uvalanishi).

Bug ‘lanishensatsiya jarayonida suyuq yoki qattiq jismlar inert  
 gazining past bosimida boshqariluvchi haroratda bug ‘lantirilad  
 kondensatsiya jarayoni muhitning past haroratli qismida yoki sovutiladigan  
 qurilmaning o ‘zida amalga oshiriladi.



**4.7-rasm. Bug ‘lanishensatsiya jarayonida nanoparoshoklarni olish sxemasi**

Bu usul 200 dan bir necha yuzlab o ‘Ichamda  
 imkonini beradi. Odatda 20 nm dan kichik bo ‘Igan zarr  
 ega bo ‘ladilar, undan kattal

Bug ‘lanuvchi  
 kamera 4 qizdirgich bilan qizdiriladi, kameraning teshiklari ya ‘ni  
 diagrammalari mavjud. Diagramma orqali bug ‘lanuvchi  
 muhitga o ‘ladi (Dasima Ormolekulyar dasta hosil bo ‘ladi.  
 Zarralar deyarli tog ‘ri chiziq  
 kondensatsoyalanadilar. Gaz qurilmadan 3 klapan orqali chiqarib yuboriladi.

Agar bug ‘latish s  
 diagrammagacha bo ‘Igan or

zarralarning erkin yugurish yo  $\lambda_{ch} > d_d$  ( $d_d$ - difragmagacha bo 'Igan masofa). Qizdirilayotgan kameradan sizib chiquvchi zarralar dastasi effuzion bo *Jadid dastarning intensivligi lan r masofa oraliqda:*

Bu yerda:  $P$  – bosim,  $M$  – molekulyar massa,  $t$  - issiqlik manbasining harorati,  $\theta$  – tirqish tekisligining normal yo ~~нормал~~ dasta орасидаги бурчак.

Ifodadan ko <sup>2</sup>rinija turibdiki, dastanining ~<sup>3</sup>han zarralarning muhitda taqsimlanishi, manba uchun ham huddi shunday. Boshqacha aytganda muhitga tarqalgan zarralar vakuumda geometrik optika qonunlari bo'yicha taqsimlanadi.

